

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

FALSAFA KAFEDRASI

ETIKA

(AXLOQSHUNOSLIK)

(Ma'ruza matnlari to'plami)

Barcha bakalavr yo'nalishlari uchun

2020-yil

Tuzuvchi:

f.f.n. N.R. Ochilova

Taqrizchilar:

f.f.d., prof. S.A.Choriyev

k.o'q. S. Ibragimov

Ushbu ma'ruza matnlari to'plami Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti «Falsafa» kafedrasida yig'ilishi (Bayonnoma № «__» _____ 2010 yil), «Ma'naviyat va ma'rifat» kengashi yig'ilishlarida (Bayonnoma № «__» _____ 2010 yil) hamda institut ilmiy uslubiy kengashlarida muhokama qilingan va o'quv jarayonida qo'llanishga tavsiya etilib, nashr qilishga ruxsat berilgan (Bayonnoma № «__» _____ 2010 yil).

A N N O T A T S I Y A

Ushbu ma'ruza matni to'plami barcha bakalavr yo'nalishlarida Etika (axloqshunoslik) fani bo'yicha mavzu matnlarini o'z ichiga olgan.

Ma'ruza matni asl manbalar, eng yangi adabiyotlar asosida yoritishga harakat qilingan.

Ma'ruza matnlari to'plami yangi namunaviy dastur hamda O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol g'oyasi talabi asosida tayyorlandi. To'plam Etika (axloqshunoslik) fanidan dars beruvchi o'qituvchilar va o'rganuvchi talabalar uchun mo'ljallangan.

A Н Н О Т А Ц И Я

Настоящий сборник текстов лекции рассчитан для всех направлений бакалавриата и молодых преподавателей, ведущих занятия по этике. Сборник текстов лекций написан на основе новой типовой программы по этике и отвечает всем требованиям идеям национальный независимости Республики Узбекистана.

A N N O T A T I O N

The collection of lectures is intended for bachelors of all specialists and young teachers who deliver lectures on the subjects of Ethics.

The collection of lectures is written on the base of the new standart programme and according the requirements of the Idea of National Independence of the Republic Uzbekistan.

S O' Z B O S H I

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, barcha ijtimoiy fanlar kabi falsafa fanining ham muammolariga munosabat o'zgardi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy- gumanitar fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini va ahamiyatini ustida alohida to'xtab qo'yidagi fikrlarni aytgan edi: « Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlari, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligining, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu bir tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bilmog'I lozim».¹

Falsafa ko'p qirrali, umumiy ijtimoiy- ma'naviy bilimlar tizimidir. Falsafa ijtimoiy ongning nazariy shakli sifatida, jamiyatdagi axloqiy, estetik, mantiqiy va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan jamiyatning bir butun moddiy va ma'naviy hayoti bilan chambarchas borliqdir.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach barcha ijtimoiy fanlar kabi axloqshunoslik yangi jamiyatda tobora o'z yuksak mavqei egallab bormoqda. «O'zbekistonning kelajagi, buyukligi avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, siyosiy va estetik jihatdan kamol topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa ijtimoiy ong shakllari, shu jumladan, axloqiy - estetik ongni shakllantirish va rivojlantirishni talab etadi».

Etika (axloqshunoslik) hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fan. Faqat zulm va zuravonlikka, adolatsizlik va huquqsizlikka asoslangan totalitar tuzumlardagina u yolg'onga bo'ysundirilgan, soxtalashtirilgan hamda shu yo'l bilan ahamiyati pasaytirilgan.

«Aslini olganda, - deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov, - axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas. Axloq – bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani».

Bu fikrlar, bir tomondan, eski tuzumdan qolgan axloqsizlik, ko'rinishlariga loqayd qarovchilarga va bu fanlarni yengil-elpi, ikkinchi darajali fan sifatida tushunuvchilarga adolatli zarba bo'lsa, ikkinchi tomondan etikaning jiddiy nazariy tadqiqotlarga suyanishi keraqligini ta'kidlaydi. Zero, hozirgi sharoitda milliy va umuminsoniy etik qadriyatlar hamda qadimiy urf-odatlar, an'analar mustaqil O'zbekistonda yangi zamon ma'naviy qadriyatlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qilishi talab etadi.

Mazkur Etika (axloqshunoslik) fanidan yozilgan ma'ruza matnlari oliy ta'limdagi nofalsafiy bakalavriat tizimi talabalari uchun yangi namunaviy dastur asosida yozilgan hamda talabalarga axloqshunoslik tarixi hamda nazariyasidan zamonaviy bilim berishga, ularni yuksak axloq egasi qilib tarbiyalashni yuksaltirishga yo'naltirilgan.

¹ I.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq»nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati,1998, 25-bet .

1-mavzu: Etika (axloqshunoslik) fanining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Axloqshunoslik faning predmeti, tadqiqot doirasi uning asosiy vazifalari.
2. Axloqshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va ahamiyati.
4. Qadimgi Sharqda dastlabki axloqiy ta'limot. «Avesto» - qadimgi dunyoning axloqiy ta'limoti.

1.1. Etika (axloqshunoslik) faning predmeti, tadqiqot doirasi uning asosiy vazifalari

Etika yoxud axloqshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi bir necha ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis- hulq-atvor)-ijtimoiy ong shakllaridan biri. Axloq-kishilarning tarixan tarkib topgan xulq -atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. Axloq- butun boshliq jamiyat a'zolari, millat, xalq, shaxs amal qiladigan ijtimoiy tartib-qoida bo'lib,ushbu tartib-qoidalar yordamida inson hatti-harakati tartibga solinadi, ya'ni boshqariladi. Murakkab ijtimoiy tartib intizom majmuasi bo'lgan axloq shaxsning ruhiy ma'naviy faoliyati bo'lib, uning kundalik hatti-harakatini tartibga soladi va turli axloqiy prinsiplarda, normalarda (burch, ma'suliyat, qadr-qimmat, vijdon va h.), munosabatlarda, baholarda, ideallarda namoyon bo'ladi.

Axloq –ijtimoiy borliqning ta'sirchan omillaridan biridir. Davr o'zgarib borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi.Axloqni alohida falsafiy fan-<<Etika>> o'rganadi..

«Etika –burch haqidagi fandir»¹ degan fikr haqiqatga yaqindir. Chunki, burch- axloqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatidir. «Burch shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi ma'suliyat, onglilik vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir»². Zero, fikrlar xilma-xilligi umuminsoniy- axloqiy qadriyatlarni ma'naviy idial tarkib vositasida jamiyatga singdiradi.

Odob–(arab.adab so'zining ko'pligi)-xulq –atvor, jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yori shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va u bilan munosabatda namoyon bo'ladi. Odob asosida axloqiy tamoyillar, me'yorlar , tarbiyalanganliklar darajasi va estetik ideal talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yusinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etish, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga mansub qoidalar (masalan: or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik,xushmuomalalikni o'z ichiga oladi).Odob birinchi navbatda oila muhitida, qolaversa, ta'lim-tarbiya ijtimoiy foydali mehnat, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Хулқ – Insonning ma'naviy qiyofasi va faoliyatiga xos bo'lgan axloqiy tushuncha. Shaxs hayot tarzining o'ziga xosligini, uning faoliyatida axloqiy qadriyatlar tamoyillari nechog'li o'zlashtirilganligi, odob me'yorlari qay tarzda amaliy ahamiyat kasb etganligini va aksincha, odob-axloqqa zid bo'lgan xislatlar mavjudligini ko'rsatib turadi. Xulq shaxs axloqiy faoliyatining o'lchami, ko'rsatgichidir. Shaxsning yaxshi axloqiy fazilatlar bilan sug'orilgan faoliyat tarzi «yaxshi Xulq» namunasi bo'lib xizmat qilsa, faoliyatida axloqiy qadriyatlarga zid amallarning namoyon bo'lishi esa, «yomon Xulq» ga misol bo'la oladi. Inson Xulqi uning ma'naviy- axloqiy dunyosining o'ziga xos ko'rsatgichi hisoblanadi. Shuningdek , ma'naviy- ruhiy kechinmalarning inson Xulqi orqali namoyon bo'lishi ko'p jihatdan mabjud shaxs ta'sirida bo'lgan muhitning o'ziga xos tarzda shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sahaxs ma'naviy- ruhiy kechinmalari ayni vaqtda uning xulqi orqali amaliy ahamiyat kasb etib, o'ziga xoc bo'lgan faoliyat me'yorlarini shakllantiradi.

¹ L.A.Popov. Etika. Kurs leksii, M., «Sentr», 1998, 10-b.

² U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari, T., «Fan», 1994, 28-b.

Axloq - barcha odamlar uchun birdek taaluqli hisoblangan, shaxs hayotidagi hamma sohalarida o'ziga va o'zgalarga nisbatan qo'yiladigan ma'naviy – ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining hatti- harakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma'naviy hodisa.

Axloqning mohiyatida asosiy e'tibor kishilarning jamiyatdagi hatti –harakatlari, yurish-turishlari, yashash normalari, printsiplari, qoidalari, ularning o'zaro munosabatlari kabilarga qaratiladi.

Axloq- odob to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish, yaxshilik, ezgulikning mohiyatini tushunish, insoniy burch talablarini bajarish gumanistik ideal talablariga zid bo'lmaydi, aksincha har bir kishining insoniy burchi, vijdoniga mos tushadi. Axloq- odob to'g'risidagi bilimlar, tasavvurlar asta-sekin insonning dunyoqarashiga ta'sir o'tkazadi.

Inson dunyoqarashida axloq, odob, xulq to'g'risidagi bilimlarning, ayniqsa gumanistik ideallarning ustuvorlik qilishi, uning nafaqat hulq- atvori, balki hatti- harakatining mazmuni va shaklini o'zgartiradi.

Axloq- odob prinsiplari va normalarining iymon - e'tiqodga aylanishi aksariyat hollarda shaxs bilan jamiyat manfaatining uyg'unlashuviga bog'liq ekanligi sir emas. Agar shaxs bilan jamiyatmanfaati uyg'unlashmasa insonning kundalik ehtiyoji bilan o'sha ehtiyojning vujudga kelishiga turtki bergan motiv o'rtasidagi nomutanosiblik borgan sari kuchayib boraveradi. Natijada, inson hatti- harakatida axloqiy prinsip va normalardan begonalashuv boshlanadi. Inson erkinligi nazoratdan chiqib ketadi. Axloqiy prinsip va normalardan begonalashuv axloqsizlikning yangi ko'rinishi - axloqiy nigilizmning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda inson axloqiy faoliyatini boshqarishda ixtiyoriylikdan ko'ra majburiylik katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Mashhur rus tadqiqotchisi S. A. Rubinshteyn o'rinli ta'kidlaganidek, inson hatti- harakatini tahlil qilganda o'sha hatti- harakatni ivujudga keltiruvchi, uni qo'zg'atuvchi sabablarining turli holatlari, turli darajalarini va ularning bir-birlari bilan qo'shilib- qorishib ketishlarini ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni doimo inobatga olish darkor.¹

Axloq universal hodisa- uning qoidalari, hamisha hamma uchun umumiy talab hisoblanadi. Xulqiy fazilatlar, fe'l-atvor xislatlari o'zgarib borishi mumkin, lekin ular axloq qonuniyatlari doirasida o'zgarishi kerak. Shu ma'noda bugungii jamiyatimizning ma'naviy- axloqiy muhiti va uning axloqiy darajasi talab darajasida, unga milliylik va umuminsoniylik xos. Buning sababi shundaki, jamiyatimizning ahloqiy muhiti qadimgi tarixiy tajriba hosilasidir. Bizda kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, muhtojga sahovat, o'ziga talabchanlik va Vatanga nisbatan fidoyilik ahloqiy madaniyat darajasiga ko'tarilgan. Bu qadriyatlarisiz bizning axloqiy ongimiz g'arib bo'lib qoladi. Bu konservativ hodisa emas, aksincha, milliy o'ziga xoslik va mental xarakterga egadir.

Misol uchun, faylasuf olim V. Semyonovning fikricha, bugungi jamiyatning axloqiy muhitini talab darajasida saqlab qolish etika fani zimmasiga tushadi va bunda etika insonni quyidagi olti jihatdan o'stirish hamda rivojlantirishga diqqat qilishi lozim:

1. Insonni hayotiy maqsadga o'rgatish.
2. Insonni ma'naviy-axloqiy o'stirish.
3. Insonda ijodkorlikni rivojlantirish.
4. Insonni jismoniy va ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlantirish.
5. Insonni erkinlikka o'rgatish.
6. Insonni maqsadli tarbiyalash².

Sog'lom e'tiqod insonda sadoqat va rostgo'ylik fazilatlarini hosil qiladi, bu fazilatlar kishini sog'lom fikrli bo'lishiga olib keladi, sog'lom fikrli kishilarning o'zaro munosabati mazmun kasb etadi. Demak, inson faqat sog'lom fikr bilangina tashqi munosabatga kirishishi mumkin, aks holda jamiyat hayoti axloqli bo'lmaydi.

Inson o'zgalar axloqi va hatti- harakatini gapirishdan o'zini tiyishi lozim, aksincha, inson o'z hulqi va hatti-harakatiga hakamlik qilishi kerak. Kant deydi: «O'zgalarning axloqiy kayfiyatini (ahvolini) faqat Xudo muhokama qila oladi, men o'z ma'naviy dunyoim uchun o'zim hakam bo'lishim mumkin, xolos.

¹ Rubinshteyn S. A. Bitiye I soznaniye. M., 1957, 260-261b.

² V.Semyonov. O perspektivax cheloveka v XXI stoletii. // Voprosi filosofii. Moskva, 2005, №9, 27-b.

Zero, biz o'zgalarning axloqiy ahvolini muhokama qila olmaymiz, insonning ichki kayfiyatini inson muhokama qila olmaydi, biroq insonning axloqiy qiyofasini muhokama qila olamiz»³. Demak, hech bir inson ma'naviy- axloqiy yetuklikda komillik davo qila olmaydi-u qayerdan biladi o'zining axloqiy yetukligini? Insonning ma'naviy- axloqiy yetukigiga o'zgalar baho beradi va bu insonning axloqiy qiyofasini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishdir. Binobarin, insonning axloqiy kamoloti undagi yomon qiliqlarning, illatlarning yo'qolib borishi bilan bo'g'liq. U o'zini o'zi qanchalik boshqarib, aql va axloqqa asoslagan sari shunchalik halollikka, oqillikka, insoniylikka erishadi.

Axloqning burch, vijdon, or- nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud. Axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya'ni huquq, ishlab chiqarish- ma'muriy nizomlardan, davlat dekretlaridan, xalq an'analaridan va hokozolar o'z talablarining asoslanishi va amalgam oshirilishi bilan farq qiladi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi, hamma qabul qilgan ommaviy namuna, odat, rasm- taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun, Axloq talablari hammaga bab-baravar joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo'ladi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga ega. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida Axloqning o'ziga xos norma- qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko'rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi) ifodalanadi va bu qoida-normalar axloqning yagona asosga ega bo'lgan nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq moddiy va ma'naviy madaniyatning taraqqiyoti jarayonida rivojlanadi. Axloq jamiyatda turli funksiyalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilar eng muhim hisoblanadi:

- 1) kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish
- 2) kishilar faoliyatining insinparvar qadriyatlarini va mo'ljallarini belgilab berish
- 3) haxsni ijtimoilashtirish.

Ushbu funksiyalarni bajarar ekan, Axloq zaruriylik, aqlga muvofiqlik va umuminsoniylik namunalarini namouish etadi. Kishilar faoliyatini muvofiqlashtirar ekan, axloq ularni insonparvar, ezgu, halol adolatli munosabatlarga undaydi.

Umuman olganda esa, axloq jamiyat va shaxs taraqqiyotining umum ijtimoiy qonuniyatlari asosida amalga oshiradi.

1.2. Axloqshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Falsafiy bilimlar doirasi juda keng bo'lib, ularning tarkibiga axloqiylik va go'zallik haqidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladigan etika va estitika ham falsafiy bilimlar qatoriga kiradi.

Etika (Axloqshunoslik) va Estetika bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular yetarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki, insonning hatti-harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli "Avesto", "Bibliyo" va "Qur'on" kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni – ichki go'zallik, nafosatni- tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at estetikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va ijodkor eng yuksak axliqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in'ikos ettiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga ohsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtayi nazari orqali ro'y berishi mumkin. Ya'ni, biror-bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo'lmaydi, lekin undagi voqea- hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mutlaqo mumkin emas.

Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning hatti- harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayyan hatti- harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur yetmaydi.

³ I.Kant. Leksii po etiki (1780-1782). // Eticheskaya misl.Nauchno- publisciticheckiyе' cheteniya. M., «Ipl», 1990, 297-322b.

Bundan tashqari, axloqning qonun- qoidalariga, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlilik xususiyatiga ega. Estetika esa muayyanlikni aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga- ayolga ham, erkakka ham, yoshu qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa «go'zal odam» tushunchasi yo'q; yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Chunki, erkak kishidagi chiroyli mo'ylov faqat erkakning yuzida, ayol kishidagi husnlardan biri-ko'krak faqat ayol kishi vujudida go'zallikka ega. Endi mo'ylov burab so'zlayotgan ayolning, siynaband taqib yurgan erkakni tasavvur qiling! Boyagi go'zalliklar xunuklikka aylanadi-qoladi. Shuningdek, go'zallik bir vujudda ham faqat o'z o'rnini talab qiladigan «o'ta injiqlik» xususiyatiga ega. Shu joyda olmon nafosatshunosi Fexner qo'llagan misolni keltirish o'rinlidir. Mutafakkirlarning fikricha, qiz bola yuzidagi qizillik uning go'zalligidan galolat beradi. Biroq, qizillik uning burni ustiga ko'scha –xunuklikka aylanadi. Demak, axloq uchun- umumiylik, nafosat uchun esa – muayyanlik mavjudlik sharti hisoblanadi.

Etika (Axloqshunoslik) va Huquqshunoslik. Qadimgi Rim huquqshunoslaridan biri Ulpianning ta'kidlashicha «huquqni o'rganuvchi, avvalo huquq (ins) so'zining kelib chiqishini yaxshi bilmog'i kerak». «Huquq»odil sudlov (institia) so'zidan olingan bo'lib adolat va yaxshilik haqidagi fandır.

Axloq jamiyat paydo bo'lishi bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Huquq esa jamiyatning tadrijiy rivojlanishining ma'lum bosqichida paydo bo'ladi. Huquq tushunchasi amerikalik huquqshunos olim Loures Fredmanning tarifiga ko'ra «lahza kabi o'tkinchi, suv pufagi kabi nobarqaror, chinni idishlar kabi nozik, benihoya ko'p qiralarga ega bo'lgan» tushunchadir¹. Shuning uchun ham huquq va axloq munosabatlari, huquqning ijtimoiy normalar tizimida tutgan o'zni haqida gap ketar ekan huquqning falsafiy mohiyatini yanada mukammalroq bilish kerak bo'ladi.

Axloqshunoslik pedagogika fani bilan chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini, pand-nasihatlarsiz, odobnoma darsliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axloqshunoslik o'zining nazariy va amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya ham axloqiy tarbiya sifatida namoyon bo'ladi.

Axloqshunoslik bilan dinshunoslik o'zaro aloqadorlikda bo'lib, har ikkalasi ham axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratiladi. Din ham ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, umumjahoniy dinlar vujudga kelgunga qadar mavjud bo'lgan urf-odatlar va qadriyatlar, muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sirini o'tkazgan. Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Ijmo' muayyan mezonlar va talablar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farqi, shundaki axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai-nazardan yondoshadi.

Qadimgi davrdanoq axloqshunoslik ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqada bo'lib kelgan. Bu ikki fan ham kishilar hatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Ruhshunoslik u yoki bu hatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv) larning ruhiy tabiati, shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan Hadislarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Axloqshunoslik sotsiologiya fani bilan aloqada bo'lib, bu ikkala fan ham inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy tomoni – axloqni o'rganadi. Lekin, axloqshunoslik sotsiologiyaga nisbatan keng tushunchadir. Sotsiologiya jamiyatdagi insonlarning ommaviy hatti – harakatlari va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy, ham axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli hatti - harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Axloqshunoslik siyosatshunoslik fani bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosat, davlat ishlari faoliyati bilan shug'ullanar ekan, davlat ishlaridagi har bir jarayonda axloq, odob, hulq e'tiborga olinadi. Davlatda ichki va tashqi siyosat namoyon bo'ladi. Bu jarayon ziddiyatli o'tadi. Siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Siyosatda faoliyat ko'rsatadigan har bir jarayon, faoliyat odob orqali amalga oshishi kerak. Rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning muomala madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalar ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Axloqshunoslik ekologiya fani bilan ham aloqadorlikda. Axloqshunoslik ko'proq insonning o'zi, o'zgarlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini hal etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabatini chetda qoldirib kelgan. Bugunda tabiatga bo'lgan insonning munosabati achinarli holdadir.

¹ Fridman L. Vvedenie v amerikanskoe pravo. M.: 1992, C.8

Tabiatning ekologik muvozanati buzildi. Ekologik boʻron ekologik manzarani buzdi. Endilikda global (umumbashariy) muammolar koʻproq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bogʻliq ekanligi maʼlum boʻlib qoldi.

Hozirgi kundagi ekologik muammolarni bartaraf etishda axloq, muhim rol oʻynaydi. Insonlarning tabiatga boʻlgan munosabatidan ekologik axloqshunoslik maydonga keldi.

Axloqshunoslik milliy istiqlol gʻoyasi bilan ham oʻzaro aloqadorlikda boʻlib, uning ildizi qadimgi tarixga borib taqaladi. Milliy mafkura tizimida axloqiy gʻoyalar albatta oʻz oʻrniga ega boʻladi, axloqiy gʻoyalar zamirida milliy mafkura gʻoyalari yotadi.

Axloqshunoslik fani jamiyat aʼzolari va har bir fuqaroga milliy istiqlol gʻoyasini singdirish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Axloqshunoslik milliy istiqlol gʻoyasini axloqiy anglash vositasida roʻyobga chiqadigan tamoyillar sifatida olib qaraladi.

1.3. Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-maʼnaviy hayotidagi oʻrni va ahamiyati.

Davlatimiz madaniy –maʼnaviy mustaqilligini taʼminlashda sharqona odob, axloq, milliy qadriyatlar, urf – odat va anʼanalarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti jumhuriyatimizga xorijiy mamlakatlarning sarmoyasi, yangi texnologiyasi, zamonaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda ularning madaniyati, turmush tarsi, dunyo qarashi kabilarni ham olib kelmoqda.

Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham oʻzgarishlarga ehtiyoj sezib boradi. Shu manoda shaxs «jamiyat ehtiyojlariga koʻra axloqiy jihatdan saqlanib borsa, u ijtimoiylashadi». Hozirgi rivojlanish bosqichida jamiyatimizning manaviy- axloqiy muhitini baʼzi kuchlar tomonidan buzishga intilishlar borligi sir emas.

Kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongi, ruhiyati va kayfiyatini milliy istiqlol gʻoyasi bilan taʼminlash, yoshlarning axloqiy darajasini yuksaltirish va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek oʻlkan vazifalar turibdi. Bu vazifalarni faqat axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirish mumkin.

Yangicha yondashuvlarning biri – axloqshunoslikda milliy gʻoya va mustaqillik mafkurasiga eʼtiborni kuchaytirish bilan bogʻliqdir.

«Milliy gʻoya va istiqlol mafkurasiga haqida gap borar ekan, - deb taʼkidladi Prezident I.A.Karimov, - biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodali, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan, tushunchalarni oʻzimizda tasavvur qilishimiz kerak deb oʻylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak gʻoyalarning maʼno-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi»¹.

Mafkura axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni maʼnaviy parvozlarga daʼvat etuvchi botiniy kuch hisoblandi.

Demak, axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy hayotdagi oʻrni beqiyosdir.

Hozirgi kunda axloqshunoslik umumjahon global muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammolardan biri axloqiy muhit – “etosferani” yaratishlikdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ilmiy-texnika taraqqiyoti, uning yuksak bosqichi boʻlish ilmiy-texnika inqilobi natijasida biosfera (hayot qobigʻi) ichida noosfera (aql qobigʻi) – texnikaviy muhit yaratildi. Bugunda texnika insonlarning yashash muhitiga aylanib qoldi. Hozirgi kunda inson oʻzi yashayotgan butun boshli sayyoraga oʻz taʼsirini koʻrsata boshladi. Inson birinchi marta oʻlkan geologik kuch boʻlib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi oʻzgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Buyuk rus olimi, akademik V.N.Vernadskiy noosferaning kashfiyotchisi boʻlgandi. Bu kashfiyotlarning tafakkur ilmida bergan ijobiy tomonlari bilan birga salbiy oqibatlariga olib kelishi ham eʼtibordan chetda qolmadi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallaqli yadrolarning yaratilishi ana shunday salbiy hodisadir.

¹ Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «Oʻzbekiston», 2000, 6-bet.

Noosferaning paydo bo'lishi bilan tabiat muvozanati buzildi, kimyoviy zaharlanishiga olib keldi. Bu esa hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlarini jismonan yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi.

Bu ekologik muammolarni bartaraf qilish uchun atrof muhitni kimyoviy zahardan tozalash emas, balki XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaxridan forig'lantirishni taqazo etadi. Inson kelajakda o'zini va yashab turgan sayyorasini muqarrar halokatdan qutqarish uchun XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi texnikaviy muhitni zaruriyatga aylantirishi kerak.

Muhim muammolardan yana biri biologik axloqshunoslikdir. Bu hodisa bir necha o'n yilliklar ichida sof tabiat muammosidan axloqiy muammoga aylandi. (Bunga sun'iy buyrak, sun'iy yurakning bir kishidan ikkinchi kishiga o'tkazilishi misol bo'ladi).

Biologik axloqshunoslikdagi muammolardan biri ko'pchilik ma'lum bo'lgan – abort bo'lib, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklik huquqidan maxrum etishdir...

Axloqiy nuqtai nazardan o'lim eng o'lgan yovuzlik hisoblanadi. Ba'zi bir rahbarlarning hukmronligi davrida minglab, millionlab kishilarni qatl etilishi, qatag'on yillarida nohaqliklar, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'ladi.

Demak, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotida ijtimoiy – gumanitar va boshqa fanlar oldida o'lgan vazifalar turibdi. Bu vazifalar ichida har bir insonni, shu jumladan, yoshlarni ma'naviy kamolot sari yetaqlash, axloqiy jihatdan yetuk kishilar qilib tarbiyalash vazifasi turmoqda. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ichida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»². Mustaqil O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishida ma'naviy-axloqiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy – axloqiy omillarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da qo'yilgan talabalar va vazifalarni bajarish katta ahamiyat ga egadir. «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, - deb ta'kidlanadi kadrlar tayyorlash milliy dasturida, - insonni intellektual va ma'naviy - axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi»³.

Xulosa. Axloqshunoslik fanining tadqiqot doirasi keng qamrovli bo'lib, bahs mavzuida asosiy e'tibor inson faoliyati ekanligi, insondagi hulq, odob, axloqning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, axloqshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashda axloqiy ongning o'rni va roli kabi masalalarga to'xtaldi.

1.4.Qadimgi Sharqda dastlabki axloqiy ta'limot. «Avesto» - qadimgi dunyoning axloqiy ta'limoti.

Sharq falsafasi va Islom ta'limotida insonning ta'lim – tarbiyasi, odob-axloqi haqida juda ko'p qimmatli maslahatlar, fikr- mulohazalar mavjud. Sharqning o'ziga xosligi, unga munosib bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon tsivilizatsiyasining beshigi dunyo xalqari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonnong barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa Vatanimiz tsivilizatsiyasi Sharq tsivilizatsiyasining quchog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Muqaddas Qur'oni Karim va Hadisi Sharif insonning ma'naviy kamoloti uchun beqiyos manba ekanligi hammamizga ma'lum. Sharq mutafakkirlari, olimu ulamolari tomonidan asrlar davomida odob-axloqqa oid minglab kitoblar, hikmatlar yaratilgan.

Zardushtiylik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy- siyosiy, axloqiy- falsafiy qarashlarining ifodasi sifatida ko'rina boshlaydi.

Zardushtiylikning nazariy asosi “Avesto” adabiy yodgorligining mazmuniga kirgan diniy- falsafiy g'oyalar miloddan ilgari bir qancha asrlar davomida to'plangan va rivojlangan.

² Qarang: I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997, 137-bet.

³ Qarang: Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997, 42-bet.

“Avesto”da qadimgi kishilarning tabiat va uni bilish yo’llari haqidagi tasasvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan.

Avestoda Turon va Eron xalqlarining ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy, axloqiy qarashlari va umuman dunyoqarashi o’z ifodasini topgan.

“Avesto”da o’tmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog’liq afsona va rivoyatlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, geografiyasi, tabiati, nabototi, ilm-fani o’z aksini topgan. Unda qadimgi Turon o’lkasining iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, yer tuzilishi, saholari, tog’lari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

G’arazgo’ylik, hasad, manmanlik, fitna- fasod “Avesto”da qattiq qoralansa, va’daga vafo qilish, axdga sadoqat, samimiyat, xolislik, o’zaro izzat- ikrom kabi odamlar o’rtasida ustivor bo’ladigan axloqiy qoidalar ulug’lanadi. “Avesto” dunyoni inson uchun sinov maydoni deb tushuntiradi.

“Avesto” da odamlarni imonli bo’lishiga, doimo pok-toza yurishiga, tanani ozoda tutishga, har qanday yovuz niyat vaso’lardan yuz o’girishga da’vat etadigan axloqiy qoidalar, diniy o’gitlar, falsafiy g’oyalar nihoyatda ko’p.

Bu davrda qadimgi odamlarning baxt- saodat, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari ushaladi. Yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurashda Xudo Axura Mazda g’olib chiqib, baxtli hayot saltanati qaror topadi, o’lganlar tiriladi, gunohkorlar jazolanadi. Zardushtiylikda o’sha davrning huquqiy va axloqiy qarashlari ham o’z ifodasini topgandi. Zardushtiylikning ahloq majmuasida mehnatsevarlik, adolat, halollik yaxshilik asosiy o’rinni egallaydi. “Avesto” da ibtidoiy davrdan fedeoal davrgacha bo’lgan axloqiy qoidalar o’z aksini topgan. Zardushtiylikning ahloqiy asosini uchta narsa- ezgu so’z, ezgu fikr va ezgu amal tashkil etadi.

Yaxshi fikr Axura Mazda xudosining xislati (ramzi), yomon fikr esa Axraman’yu xudosining xislatlari hisoblanadi. Zardushtiylik jamiyatda odamlar tinch yashashi, bir- biriga samimiy munosabatda bo’lishi, bir –biriga yordam qilishi g’oyalari tarafdori bo’lib, shafqatsizlik, zo’ravonlik, shuhratparastlik, hasad qilish, tuhmat, jahlgay yo’l qo’yish va’daga vafosizlik kabi illatlarni qoralaydi.

“Avesto”da mehnat inson kamoloti va axloqiy sog’lomligining manbai sifatida ulug’lanadi. Bu fikrlarning ildizini “ Avesto” dagi yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o’z qo’llari bilan moddiy noz-ne’matlar yaratishi zarurligi to’g’risidagi g’oyalardan izlamoq lozim.

Unda zardushtiylik ilohi Axura-Mazda – ezgulik, Axriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo’ladi, ezgulik va yovuzlik, yorug’lik va zulmat, hayot va mamot o’rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etgan. “Avesto” dagi talqinlar insonning real hayoti bilan bog’liq ekani diqqatga sazovordir. Undagi ezgulik ruhi – yaratuvchilik, ijodkorlik quvvati, yovuz esa buzish va buzg’unchilik kuchi tarzida namoyon bo’ladi.

Axura-Mazda qiyofasidagi bu ezgulik – hayot ramzi, yerni inson, hayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni sog’liq, kuch-qudrat, baxt, shodlik, umid, ishonch, go’zallik, farovonlik yordamida munavvar qiladi.

Axriman qiyofasidagi yovuzlik esa qurg’oqchilik, ocharchilik, kasallik, qirg’inini, jisman va ruhan halokat singari odatlarini keltirib chiqaradi. “Avesto”da inson oliy jonzot tarzida talqin etiladi. Tabiatda barcha ne’matlarni sevish, ardoqlash insoning muqaddas burchi hisoblanadi. Ozodalik, tozalik gigiena tushunchadan axloqiy va ilohiy tushuncha darajasiga ko’tariladi: suvni, atrof-muhitni toza tutish, jonivorlarga, nisbatan shafqatni anglatadi: inson shafqatli bo’lishi kerak. Bularning hammasi “Avesto” da ekologik axloqshunoslikning dastlabki ko’rtaklari mavjudligini ko’rsatadi.

Xulosa. “Avesto” dagi ba’zi bir urf-odatlar va irimlarning hozirgi kunda ham saqlanib qolganligini ko’rish mumkin. Isiriq tutatish, qurbonlik uchun so’yilgan qo’y kallasini davradagi eng obro’li kishilar oldiga qo’yish odatlari hamda sevimli Navro’z bayramimiz fikrlarimiz dalilidir.

Tayanch tushunchalar:

Axloqshunoslik, etika, odob, hulq, axloq, noosfera, jamiyat, shaxs, ideal, ishtimoiy, biologik mafkura, zardo’shtiylik, Avesto, ezgulik, yovuzlik, g’arazgo’lik, xasad, ekologik axloqshunoslik, shafqatsizlik, zo’ravonlik, tozalik.

Takrorlash uchun savollar:

1. Axloqshunoslik qanday fan?
2. Odob, hulq, axloq haqida tushuncha bering.
3. Ahloqning funksiyalari nimadan iborat?
4. Axloq qaysi fanlar bilan dialitik aloqadorlikda.
5. Etikaning estetika fani bilan aloqadorligi va bir-biridan farqini izohlab bering.
6. Avesto» qanday ta'limot?

Adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Yangi asr avlodi. 2003 yil. 7-20 betlar.
2. E. Yusupov. Falsafa Toshkent 1999 yil. 18-19 betlar.
3. Falsafa qomusiy lug'at jamiyati. Toshkent. 2004 y. 40-310-446 betlar.
4. A. Choriyev. Inson falsafasi. Toshkent 2002 yil. 153-155-159-162-165-175 betlar.
5. J. To'lanov qadriyatlar falsafasi. Toshkent- "O'zbekiston " – 1998. 232-234 betlar.
6. Abdulla Sher, Baxodir Xusanov estetika. 2010. 8-9 betlar.
7. Huquq falsafasi. Toshkent. 2004. 145-147 betlar.
8. O.Gaybullaev. Shaxs ma'naviy kamoloni va estetik madaniyat. 2008.107-120 betlar.
9. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997, 137-bet.
10. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997, 42-bet.

2-mavzu: Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

Reja:

1. Qadimgi Hindiston va Xitoyda, Yunoniston va Rimda axloqiy ta'limotlar.
2. O'rta asrlar musulmon Sharqi axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar va ta'limotlar.
3. Temur va temuriylar davri axloqshunosligi.
4. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarning axloqiy qarashlari.

2.1. Qadimgi Hindiston va Xitoyda, Yunoniston va Rimda axloqiy ta'limotlar.

Qadimgi Hindistondagi ilk axloqiy fikrlarning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi ikki ming yillik oxiri va bir ming yillik boshlarida paydo bo'ldi. Qadimgi Hindistonda ham diniy va dunyoviy ta'limotlar vujudga kelib, unda itoatkorlik, jasurlik, olamdagi azob – uqubatlarga bo'ysunishi, sabr-toqat bilan faoliyat ko'rsatish kabilar targ'ib qilingan.

Qadimgi Hindiston falsafasi, diniy-axloqiy qarashlarini o'rganishda “Veda” deb ataladigan diniy to'plam, ikkita katta epik dostoni – «Ramayana» va “Mahobharat” hamda Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston” asari muhim rol o'ynaydi.

“Veda” degan muqaddas kitobda hind xalqining dini, afsonalari, urf - odatlari, poeziyasi, ilk falsafiy tasavvur va bilimlarni o'rganish uchun ko'p materiallar beradi.

“Veda” lar xudolarga, tabiatning ilohiy kuchlariga qaratib aytiladigan gimnlar (madhiyalar), duolar to'plami bo'lib, unda axloqiy qarashlar o'z aksini topgan.

Vedachilik axloqshunosligi eng qadimgi Hindistonda yashaydigan xalqlarni to'rt tabaqaga – varnaga bo'ladi: braxmanlar (kohinlar), kshatriylar (harbiylar), vayshchilar (dehqonlar, kosiblar), shchudralar (qullar). “Manu qonunlari” da yozilishicha, braxmanlarning mashg'uloti-ta'lim berish, Vedani o'rganish, qurbonlik qilish, sadaqa ulashish, tuhfarlar olish, kshatriylar fuqarolarini qo'riqlaydilar, vayshchilar, chorva, tijorat, sudxo'rlik, dehqonchilik bilan shug'ullanadilar: shchudralar-qullar bo'lib, ularning mulki bo'lmagan.

Braxmanlar yuksak axloqqa ega bo'lgan odamlar, deb hisoblangan. Shchudralar tuban axloq egalari deb nomlangan.

Qadimgi Hindistonda buddachilik ta'limoti muhim rol o'ynagan. Bu ta'limotga ko'ra, inson iztiroblardan qutulish yo'lini izlash kerak. Buddachilikning qisqacha bayoni quyidagilardan iborat:

1. Bu dunyodagi hayot iztiroblarga to'la;
2. Bu iztiroblarning sabablari bor;
3. Bu iztiroblarga barham berish mumkin;
4. Iztiroblarga barham berishga olib boradigan yo'llar mavjud.

Buddxaning to'rtinchi haqiqati ayniqsa, axloqshunoslik nuqtai-nazaridan muhim. Buddxa ta'limotida insonda sakkiz fazilat namoyon bo'lish kerak:

1. To'g'ri qarashlar
2. To'g'ri jur'at
3. To'g'ri hatti - harakat
4. To'g'ri nutq
5. To'g'ri hayot
6. To'g'ri jahd-jadal
7. Fikrni to'g'ri yo'naltirish;
8. Diqqatni to'g'ri qaratmoq.

Sakkiz yo'l bir-birin taqozo etuvchi uch omil – bilish, hatti -harakat va diqqat birligidan iborat. Bilim va axloq yaxlitlikka ega; fazilat bilimdan (illat esa bilimsizlikdan) kelib chiqadi. Bu axloqiy komillikka yetishishning tugallangan kontseptsiyasidir.

Qadimgi Xitoyda Konfutsiyning falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rin tutadi.

“Hamma odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir-birlariga o‘xshaydilar, tarbiyaga qarab ular bir –birlaridan farqlanadilar”, “yangini bilish uchun eskini o‘rganish kerak”, “mulohazasiz ta‘limot foydasidir, ta‘limotsiz mulohaza bo‘lmaydi”, degan fikrlar Konfutsiyning axloq haqidagi ta‘limotida asosiy o‘rin olgan.

Konfutsiy qarashlaridan Li degan tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi, Li- tartib, qoida degan ma‘noni anglatadi. Li bo‘lmasa jamiyat ravnaq topmaydi. Tartib, qonun-qoida har qanday jamiyat rivojining omilidir. Konfutsiy Li tushunchasini hatto ilohiylashtirishga borib etadi.

Qadimgi Yunon ahloqshunosligida Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta‘limot muhim o‘rin egallaydi. Uning ahloqiy qarashlari siyosiy qarashlari bilan champarchas bog‘liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat buyuk o‘rmondur. Davlat manfaatlari, qolgan barcha narsalardan ustun turmog‘i lozim. Davlat yaxshi boshqarilishi uchun g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

Foydalilik va unga muvofiq zararlilikka ega bo‘lgan barcha narsalar go‘zaldir,- deydi Demokrit. Me‘yor, - deydi faylasuf,- axloqni tabiatning insonga in‘om etgan kuch va qobiliyatiga mos kelishishidir.

Demokritning axloqiy ta‘limotiga ko‘ra, insonning ma‘naviy axloqini harakatlantiruvchi kuch aql kuchi bilan yo‘l tutganda baxtga erishishi mumkin, noto‘g‘ri harakat baxtsizlik keltirishi mumkin. Insonning barcha ahmoqona, xato hatti- harakatini ilmsizlikdan deb biladi, xatoning sababini yaxshi bilmaslikda deb hisoblaydi.

Platon falsafasi ma‘naviy- axloqiy xarakterga ega. Ezgulikka yitishish, uning inson faoliyati bilan bog‘liqligi, hatto, g‘oya, ruh ham mohiyatan ezgulikka yetishishi haqidagi fikrlar Platon etikasining muhim jihatini belgilaydi.

Kishining ma‘naviy- axloqiy olami ijtimoiy muhitda kechadi. Platon ijtimoiy - siyosiy tizimlarni tadqiq qilganida tarbiyaning ijtimoiy ta‘siri unutmaydi. Uningcha, tarbiya yakka shaxsning ishi, xohishi emas, u ijtimoiy munosabatlar natijasi hamdir. Shuning uchun tarbiya adolat va ezgulikka asoslanadigan kishilararo munosabatlar jarayonidir. Ushbu jarayon o‘z-o‘zidan emas, balki jamiyatdagi ma‘lum bir tartib, talab va institutlar orqali amalga oshadi.

Arastu birinchi bo‘lib etikani mustaqil fan sifatida ilmiy – falsafiy bilimlar safiga kiritgan. Unga insonlar o‘rtasidagi munosabatlar doirasida va oqil, ijtimoiy hayvon – individning axloqini o‘rganuvchi fan, deb nom berdi. Axloq – odob masalalariga bag‘ishlangan asarini «Nikomax etikasi», deb atadi. Bu asar o‘g‘liga bag‘ishlangan bo‘lib, to‘g‘ri yurush- turush, axloq- odob xaqida amaliy nasihat sifatida yozilgan va shu bois asar «Nikomax etikasi» deb atalgan. Arastuning axloqiy ta‘limoti monolog sifatida, ya‘ni o‘ shakli jihatidan ilmiy asar bo‘lib, abadiylikdan va kundalik fikr-mulohazalardan yiroqdir. Arastu fikricha, axloq masalasi keng va atroflicha o‘rganish hamda uning tizimini yaratishdan avval baxt- saodat nimaligini aniqlab berish lozim.

Arastu axloqiy fazilatlar va illatlarni shunday tasnif qiladi; Arastu etikasining ma‘lum tarixiy va sinfiy xarakteri yaxshiliklarni tushuntirishga, masalalarni adolatli hal etishga bog‘liq.

Axloqiy fazilatlar orqali birinchi o‘rinda adolat turadi. «Adolatsiz deb qonuni buzuvchilarga, boshqalardan ortiqroq oluvchi va boshqalarga teng munosabatda bo‘lmaydiganlar aytiladi».

Arastu birinchi bo‘lib, qadimgi dunyo axloqida inson xulqining tizimini taqdid etadi. U amaliyotga murojat qilib, iroda erkinligi masalsini qo‘yadi. Insonning barcha harakatkarini aniqlab, ular erkin, noerkin va aralashgan bo‘ladi, deydi. Arastu erkin harakatning kelib chiqish tarixini o‘rganadi. Harakat prinsipi insonning o‘zidadir. Shunga ko‘ra insonning hatti- harakatlarini maqtash yoki qoralash mumkin.

Arastuning axloqiy talimotlariga yakun yasab, shuni aytish mumkinki, unda Demokrit va Aflotungacha bo‘lgan qadimgi axloqiy fikrlar umumlashgan. Yunon mutafakiri o‘z axloqiy nazaryasini ishlab chiqar ekan, hayotga realistik nuqtai nazardan qarashlarning kengligi ma‘lum darajada Aflotuning diniy- mistik xarakteridagi axloqiy talimotlarni, sofistlarning axloqit realizmni yengishga muvaffaq bo‘ldi.

Epikurning axloqiy ta‘limoti o‘z zamonasiga nisbatan progressiv ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning fikricha, hatotning maqsadi rohat- farog‘at xursandchilikdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Rohat -farog‘at, xursandchilik inson baxtining avvali va oxiridir.

Uning axloq to‘g‘risidagi ta‘limoti individning manfaatiga qaratilgan. Uning axloqi passiv kuzatuvchan, isyonsiz kurashdan bosh tortuvchi, donishmand axloqidan iborat edi.

Lukretsiy Kap Epikurnning axloqiy qarshlarga tayangan holda o'zining axloqiy ta'limotini yaratadi. Uning fikricha inson o'lim va Xudo oldidagi qo'rquvi sababli, tabiat sirlarini bilishga qodir emasdir, chunki tabiat qonunlarini bilmaydi. O'limga, do'zaxga qarsh kurashda Xudo oldidagi qo'rquvdan xalos bo'lish uchun, diniy aqidalaening haqiqatga zid ekanligini engishda har bir kishi fan, falsafa va madaniyat bilan qurollanishi darkor, deidi.

2.2.O'rta asrlar musulmon Sharqi axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar va ta'limotlar.

O'rta asrlarga kelib nasroniylik Ovropa xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini cherkovga bo'ysundirdi, hamma sohalar bo'yicha cherkov nazorati o'rnatildi. Qadimgi dunyo mumtoz axloqshunosligi tomonidan o'rta tashlangan muammolarni hal etishda musulmon Sharqida yashab o'tgan allomalarning o'rni benihoya katta bo'ldi.

Qadimgi musulmon Sharqida axloqshunoslik ikki yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatgan: mashshoiy go'ylik va tasavvuf axloqshunosligi.

O'rta asrlar musulmon Sharqida mashshoiygo'ylik yoki boshqacha qilib aytganda, arastuchilik oqimini buyuk arab mutafakkiri al-Kindiy boshlab bergan. Uning asoschisi Turkistonlik qomusiy alloma *Abu Nasr al-Forobiy* (870-950) hisoblanadi.

Forobiy, Arastu izidan borib axloqshunoslikka doir «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» asarlarida baxt haqida to'xtaladi. U «Baxt-har bir inson intiladigan maqsad, zero u muayyan komillik hisoblanadi», - deb ta'kidlaydi. Forobiy fazilat, hayot-mamot masalalariga ham to'xtaladi. U ayol kishining bezaqlarga berilib ketishini qattiq qoralaydi.

O'rta asrda yashagan Raylik mutafakkir *Abu Bakr al-Roziy* (865-925) ta'limotida axloqshunoslik rivojlantirildi. Uning «Lazzat», «Falsafiy hayot tarzi», «Ruhiy tabobat», «Baxt va farovonlik belgilari» kabi kitoblarida uning axloqiy qarashlari aks ettirildi. U insondagi xushhulqilik va badhulqilikning munosabatini tahlil qildi. Ar-Roziyning axloqiy qarashlari, ilmiy til bilan aytganda, xedonizm (lazzatning ustuvorligiga) va evdeymonizmga (baxtning ustuvorligiga) asoslanadi. Lazzat- uningcha iztirobdan qutulish. U insonni ijtimoiy mavjudot deb tushuntiradi.

Ibn Sino (980-1037) Forobiyning shogirdi bo'lib, uning axloqiy qarashlari «Axloq ilmiga doir risola», «Burch to'g'risida risola», «Nafsi pokiza tutish to'g'risida risola», «Adolat haqida kitob», «Turar joylardagi tadbirlar» singari asarlarida o'z aksini topgan. U axloqshunoslikni falsafaning ajralmas qismi u amaliy va nazariy qismidan shakllanadi, deydi. Yuqorida tilga olingan asarlarida iffat, himmat, shijoat, adolat, saxiylik, qanoat, qat'iyat, sadoqat, hayo, kamtarlik haqida falsafiy tushuncha beradi. Ularning aksi bo'lgan – o'g'rilik, aldanchilik, fisqu-fasod, nafrat, rashk, adovat, bo'xton, irodasizlik, takabburlik, nodonlik kabi illatlarni tavsiflaydi. *Ibn Sino* «Ishq risolasi» da komil inson muammosini tushuntiradi. Uningcha, Yaratganga muhabbat – odamni komillikka olib chiqadi, deydi. Allohga muhabbat faqat tarkidunyochilik bilan emas, balki rosmana insoniyat hayotida ham ro'yobga chiqadi, deydi.

Mashshoiygo'ylik oqimining yana bir vakili Kurdotalik (Ispaniyalik) mutafakkir *Ibn Rushid* (1126-1199 yillar) axloqshunoslikda taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk alloma hisoblanadi. Ezgulik va yovuzlik o'z xolicha mavjuddir, deydi. U ixtiyor erkinligi muammosiga ham katta e'tibor beradi.

Uning fikricha ideal davlatda fuqarolarga fazilatlarini singdirish va taraqqiy ettirish uchun ikki xil usulni qo'llashni taqlif qildi. Birinchisi – ishontirish usuli, ikkinchisi-majburiy usul. Birinchisida keng ommani tarbiyalash. Buning uchun ilmiy-falsafiy nutqdan foydalanish.

Majburiy usul – tashqi dushmanlar bilan kurashish orqali amalga oshadi. Bu usulni jixod bilan tenglashtiradi. Uningcha, jixod-kofirlarga qarshi olib boriladigan doimiy diniy urush emas. U doimo tinchlik zarurligini, urushlarga esa ba'zan-ba'zangina yo'l qo'yish keraqligini aytadi. Jixodni faqat shariat talablari nuqtai-nazaridan tushunish musulmonlar boshiga ko'p ofatlar keltirganligini ta'kidlaydi.

Sharqda mashshoiyguylik oqimidan tashqari tasavvufiy axloqiy ta'limotlar – oqimlar ham mavjud edi. Dastlabki Sufiylardan bo'lmish *Robiya al-Adaviyaning* (713-801) Xudoga munosabati diqqatga sazovordir. Bu munosabatini u «Muhabbat» deb ataydi va yaratganga e'tiqod qiladi.

Allohga muhabbat jannatga erishish vositasi emas, ya'ni jannat maqsad emas, maqsad-Alloh va uning muhabbati. Bu yerda shariat va tariqat haqida fikr ketadi. Shariat islomning mohiyatini anglatadigan dastlabki, tashqi-huquqiy bosqich bo'lsa, tariqat uning ichki axloqiy va yuksak bosqichdagi ko'rinish hisoblanadi.

Tasavvuf axloqshunosligida *Xujjat ul-islom Imom Gazzoliyning* (1058-1111) o'rni beqiyos. Uning axloqiy qarashlari «Ixyon ulum – ad din» deb atalgan to'rt jildlik kitobida o'z aksini topgan. Unda tavakkal (hamma narsada xudoga suyanish), Xudoning yakkaligiga e'tiqod sifatida talqin etiladi va muhabbat, ixtiyor erkinligi, taqdir, niyat singari muammolar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. U muhabbatni bilishning maxsuli deb ataydi.

Muhabbat zamirida Allohga muhabbat yotadi, ya'ni insonning o'ziga, atrof-muhitga munosabati muhabbat orqali amalga oshadi, bu muhabbat turlarining hammasi Allohga muhabbat bilvosita ko'rinishidir. Uning ikki ixtiyor erkinligi borasidagi qarashlari taqdir muqarrar hodisa sifatida talqin etiladi. Bunda bilish birinchi o'rinda turadi, ixtiyor bilimga bo'ysunadi.

Imom Gazzoliy niyat masalasiga to'xtalib, uni bilim va harakat qamrovidagi sifati deb ta'riflaydi. Bilim niyatdan oldin turadi, u niyatning ildizi va sharti hisoblanadi.

Har bir tanlangan harakat uch narsa – bilim, ixtiyor etish va qobiliyat yordamida ro'yobga chiqadi. Zero, inson bilmay turib – hohlamaydi, hohlamas ekan – harakat qilmaydi, shuning uchun ixtiyor etmog'i lozim.

Tasavvuf axloqshunosligining o'lkan nomoyandalaridan biri buyuk yurtdoshimiz *Shayx Aziziddin Nasafiydir*. (XIII asrning yarmi XIV asrning boshlarida yashab o'tgan). Axloqiy muammolarni o'zining «Zubdat ul-xaqoyiq» (Haqiqatlar qaymog'i), «Insoni komil» (Komil inson) kabi asarlarida bayon etgan Nasaflik bobokolonimiz Arastu izidan boradi, komil inson haqida fikr yuritadi. Uningcha, komil inson, eng avvalo yuksak axloq egasi: uning yerdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasm-rusumlarni yo'qotish, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun – qoidalarni joriy etish, odamlarni Xudo tomon da'vat qilishdir. Bu darajaga yetishish uchun esa inson o'zini anglab yetishi kerak. Uning aytishicha o'zini anglamagan kishi hech narsani anglamay dunyodan o'tadi. O'zini anglash uchun inson xayrli so'z, xayrli ish, xayrli hulq, ma'rifatli ish qilish kerak.

Komillik – inson degan ulug' nomga mansub bo'lib, unga inson qadam-baqadam yetishib boradi, lekin bu darajalar mutlaq diniylikni taqozo qilmaydi, balki dunyoviy hayotda ham pok bo'lishi kerak.

2.3. Temur va temuriylar davri axloqshunosligi.

O'rta asr mutaffakkirlarining axloqiy ta'limotlarida islom dini muhim ahamiyat kasb etadi. Islom dini, uning muqaddas kitobi «Qur'on» da va Hadislarda Allohga, uning payg'ambari bo'lmish Muhammad alayhissalomga e'tiqod qilish bilan birga ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, ahillik, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo, sadoqatlilik, odob-axloqli bo'lish haqida ko'plab axloqiy fikrlar aytilgan.

Qur'oni Karim, Hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z ifodasini topgan. Markaziy Osiyoda yuzlab qomusiy olimlar buyuk shoirlar va san'atkorlar yetishib chiqdi. Ular orasida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) alohida ahamiyatga molik. U insonni butun borliqning ko'rki va sharafidir, deb ta'kidlaydi. Inson yuksak darajada ulug'lanadi, oliy mavjudot deb ta'riflanadi. Alisher Navoiyning asarlarida, axloqiy qarashlarida bosh masala- inson, xalq, Vatan, uning gullab yashnashi, istiqboli haqidagi muammolar turadi. Adolat, sadoqat, burch, muhabbat, rahm-shafqat, kamtarlik, mardlik singari fazilatlar madh etiladi.

Alisher Navoiy Naqshbandiya sulukiga mansub yirik shaxs sifatida axloqshunoslik nazariyasi va taraqqiyotiga o'lkan hissa qo'shgan mutafakkirdir. U Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyili bo'lmish, diling Xudo bilan, quling ish bilan band bo'lsin, degan shioriga amal qilgan. U inson qadr-qimmatini birinchi o'ringa qo'ydi, nomus, oriyat va insoniy g'urur tushunchalarini o'ziga xos talqinini berdi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari, ayniqsa, Temuriylar davri axloqshunosligi taraqqiyotida katta hissa qo'shdi. Asar uch qismdan iborat bo'lib, nafaqat tasavvuf axloqshunosligi va axloqining, balki butun musulmon Sharqi axloq ilmining nazariy muammolari ko'tarildi. Shuning uchun undan pandnoma sifatida foydalanib kelindi. Navoiy Suqrot izidan borib, qonunni adolat bilan uyg'unlashtiradi.

Asarda komil inson masalasi o'ziga xos tarzda o'rtaga tashlanadi. Temuriylar davri axloqshunosligida Abduraxmon Jomiy (1414-1492) ning o'rni benihoya kattadir. Abduraxmon Jomiy A. Navoiy bilan do'st edi. XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisalardan biri Navoiy va Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasi bilan birga xalq, davlat ishlarida inson va adolatni yoqlar edilar.

Jomiy o'z faoliyatida Naqshbandiya g'oyalarini qo'llab-quvvatlar edi. U Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Ijtimoiy – siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga zulmni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Shox odil bo'lsa, - deb ta'kidlaydi A. Jomiy, - u bexavf, bexatar yashaydi. Demak, A. Jomiyning axloqiy qarashlari Temuriylar davri axloqshunosligida muhim rol o'ynaydi.

Temuriylar davri axloqshunosligida Navoiyning nazari tushgan alloma, uning zamondoshi xusayn Voiz Koshifiy (1440-1505) dir. O'zining «Axloqi Muxsiniy» degan kitobida yaxshilik va yomonlik haqida fikr yuritib, yaxshilik, ezgulikdir, deydi. Ezgulikning ibtidosi xushhulqlilikdir deb tushunadi. Halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi axloqiy me'yorlar tamoyillar ezgulikning poydevori sifatida olib qaraladi. U adolat, burch tushunchalariga batafsil to'xtaladi. Uningcha, adolat insoniy jamiyatni baxt-saodatga olib boruvchi yo'l, deb tushuntiradi.

Koshifiy kiyinish odobi, muomala odobi, mehmondo'stlik va tanovul etikasi borasida ham fikr yuritadi. Kasbiy odobga to'xtaladi.

Temuriylar davri axloqshunosligida Jaloliddin Devoniy (1427-1502) ning faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Axloqshunoslik muammosiga bag'ishlangan yirik asari «Axloqi Jaloliy» risolasi bo'lib, unda axloqiy ta'limotlar aks ettirilgan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qismida axloq tushunchalari bo'lmish adolat, shijoat, donishmandlik, iffat singari fazilatlar tahlil va talqin qilinadi. Ikkinchi qismida oilaviy hayot, bolalar tarbiyasi, muomala odobi haqida fikr yuritiladi.

Kitobning uchinchi qismida, shahar madaniyati, podsholarning siyosat yurgizishi, fuqarolarning shahar (davlat) boshliqlari bilan bo'lgan munosabati aks ettiriladi.

Demak, temuriylar davri axloqshunosligida ham asosiy o'rinni inson muammosi, uning axloqi, odobi, hulqi kabilarga e'tibor qaratildi.

O'rta asr musulmon Sharqida mashhur pandnomalar yaratilib, xalq ichida keng tarqalgan. Ularning eng mashhurlaridan biri taxminan III-IV asrlarda yaratilgan qadimgi Hind adabiy-didaktik yodgorligi «Panchatantra» dir. U bizda «Kalila va Dimna» nomi bilan ataladigan asar bo'lib, unda ikki dunyo namoyon bo'ladi: biri-insof, adolat, diyonat, halollik, ezgulik dunyosi, ikkinchisi-yolg'onne, qalloblikni, munofiklikni, xudbinlikni kasb qilib olgan illatlar tajassumi bo'lgan odamlar dunyosi, yovuzlik dunyosi.

Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (Yaxshilik keltiruvchi bilimlar) asari bo'lib, 13000 misradan iborat bo'lgan turk xalqlarining qomusiy asaridir. Kitobda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, olijanoblik va tubanlik, halollik va haromlik singari tushunchalar haqida fikr yuritiladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida inson hayoti va faoliyatiga doir o'git-ko'rsatmalar aks ettirilgan. Unda mehmonga borish, mehmon kutish, savdogarlik odobidan tortib, chavgon uyini odobigacha qalamga olinadi.

Sharq pandnomalarning eng mashhuri Shayx Muslixiddin Sa'diyning (1184-1292) «Guliston» asaridir. Asarda muallif, ezgulik va yovuzlikning o'zaro munosabati ochib beriladi. Uningcha, inson inson uchun vosita emas, maqsad degan g'oyani ilgari suradi. Yovuzliklar ichida ayniqsa yolg'onne qattiq qoralaydi. Sa'diy juda ko'p hikmatlar kashf etdi.

Bu asarga taqlid qilinib, juda ko'p asarlar yaratildi. Jomiyning «Bahoriston», Poshshaxo'janing turk tilida bitilgan «Miftox ul-adl» va «Gulzor» asarlari shular jumlasidandir.

Temuriylar davridagi pandnomalardan biri Xondamirning (1481-1535) «Makorim ul-axloq» (Yaxshi hulqlar) asari bo'lib, unda insondagi barcha fazilatlar – Alisher Navoiy qiyofasida ko'rsatiladi.

O'rta asrlardan keyin ham Pandnomalar yaratish davom etdi. O'zbek mumtoz shoiri Gulxaniy (XVIII asrning II – yarmi - XIX asrning boshlari) «Zarbulmasal» asarini yozdi, bu asarda hikoya ichida masal-hikoyatlar, yuzlab xalq maqolalari joy olgan

Bu hikoyatlar va maqollar orqali insonlarni insof, adolat, diyonat, halollik va soflikka chorlaydi.

Bugunda kelib, yozib qoldirilgan pandnomalarni ta'limda, tarbiyada ahamiyat i beqiyosdir.

Inson o'z o'tmish tarixini bilishi kerak. «O'zlikni anglash, - deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov, - tarixni bilishdan boshlanadi». Bugunda talaba yoshlar har bir jarayon, voqealarni o'tmish tarixi bilan solishtirgan holda faoliyat ko'rsatishlari kerak.

2.4. Turkiston jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning milliy – ozodlik mafkurasigi aylanishi.

Turkistonda jadidchilik, ma'rifatchilik harakati o'zining O'rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjondagi qardoshlari Said Ahmadxon, Jamoliddin Afg'oni, Butrus al-Bustoni, Jo'rji Zaydon, Muhammad Abdu, Muhammad Kavokibiy, Javod Husayinzoda, Imom Rizouddin ibn Fahriddin, Shayx Muso Jorulloh, G'aspirali Ismoilbey va boshqalarning diniy-islohchilik, marifatchilik g'oyalari va harakatlari ta'sirida chuqur sifatli o'zgarishlarga uchradi. Oqibatda, Chor Rossiyasining o'zida turkiymusulmon xalqlarining uyushishi g'oyasini ilgari surgan G'aspirali Ismoilbey ta'sis etgan «Tarjumon» gazetasi platformasida turgan, ancha- muncha siyosiy ta'sirga ega bo'lgan milliy- ozodlik harakati, uning ma'rifatchilik mafkurasigi- jadidchilik vujudga keldi.

Turkiston xalqining boy ijtimoiy – falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazzun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general gubernatorlaridan biri A.N.Kuropatkinning o'z kundaliklarida qayd etganidek: «Biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va tsivilizatsiyasidan chetda tutib turdik» qabilidagi so'zlari yaqqol anglatadi. Ayni chog'da Turkiston xalqlari Chor Rossiyasining mustamlaka zulmidan qutulish, milliy davlatchilikni ko'rish, o'z milliy iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochishga qat'iy kirishgandilar. Bu jarayonlarning yetakchi kuchi-milliy savdo-sanoat burjuaziyasi hisoblanib, u juda katta qiyinchiliklar bilan bo'lsada, xalqimizning tub iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy manfaatlarini himoya qiladigan nazariy asos-jadidlar ma'rifatchiligini shakllantirib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlamoda edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan Turkistonda yangi Uyg'onish davrini boshlab berdi. Maxalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Ovrupa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, O'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha ma'rifatparvarlik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Ilg'or g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan ziyolilar vujudga kelgan edi. Bo'lar keyinchalik jadidlar deb atala boshlandi.

Jadid – (arabcha-yangi), yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy tarraqqiyot usullari, yo'llari, tarafdorlarining umumiy nomi hisoblanadi.

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy-musulmon o'lkalari (Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi – Bulgor va Janubiy Ural havzasi, Turkiston) da shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitidagi vujudga kelgan. U o'sha davrda Turkistonda milliy mafkura vazifasini bajardi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim» ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili makomini berish, milliy pul birligi, milliy qo'shin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarni tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi mahalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy

taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy – ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarqala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shahobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targ'ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi.

Xulosa. Qadimgi dunyo axloqshunoligi, o'rta asrlar mutafikkirlarining axloqiy ta'limotlari ijtimoiy hayot, ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Talaba – yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonida tarixga murojaat qilib, undan tanqidiy foydalanib hayotga tadbiiq qilish zarurligini esdan chiqarmasliklari kerak. O'tmish tarixidan ijobiy foydalanish, undan to'g'ri xulosalar chiqarish talab etiladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov: «Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin»¹, - deb ta'kidlagan edi.

Tayanch tushunchalar:

Yovuzlik, xasad, iztirob, adolat, donishmandlik, do'stlik, tasavvur, niyat, qadr-qimmat, lazzat, fazilat, jadid, ziyoli, mustaqillik, maqsad, vosita, aql, pandnoma.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimgi Hindiston va Xitoyning axloqiy ta'limoti to'g'risida gapirib biring?
2. Qadimgi Yunoniston va Rim axloqshunoslarining ta'limoti haqida fikringiz?
3. Temuriylar davridagi axloqning o'ziga xosligi qanday?
4. Turkiston ma'rifatchi jadidlarining asoschilari kimlar?

Adabiyotlar:

1. J.To'lanov. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent - «O'zbekiston». 1998.- 212b.
2. E.Yusupov. Falsafa. Toshkent. 1999. -54, 55, 56 betlar.
3. I.Karimov, M.Rustamova. Falsafa fani tarixi va nazariyasi. (metodik qo'llanma). Toshkent. 2007. -36, 44, 45,51,55 betlar.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Yangi asr avlodi. 2003.- 22-73 betlar.
5. Garb Falsafasi. O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent. 2004. -83, 113, 115, 156, 157, 158,159, 161, 162, 174, 175, 184, 261, 290, 291. betlar.
6. Monten M.Opiti. V 3 kn.-M., 1979,C.88.
7. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998, 6-bet

¹ Qarang: Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998, 6-bet

3-mavzu: Ovro'pa va hozirgi zamon axloqshunosligi.

Reja:

1. O'rta asrlar va Uyg'onish davrida Ovro'pa mamlakatlarida vujudga kelgan axloqiy ta'limotlar.
2. Yangi davr axloqshunosligining tarixiy xususiyatlari.
3. Olmon va rus mumtoz axloqshunosligining vujudga kelishi.
4. Eng yangi davr axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar.

3.1.O'rta asrlar va Uyg'onish davrida Ovrupa mamlakatlarida vujudga kelgan axloqiy ta'limotlar.

O'rta asr Yevropa falsafasi, axloqshunosligida asosiy e'tibor xristian dini, cherkovga bo'lgan munosabat bilan karakterlanadi. Axloqshunoslik oldida nasroniylik ta'limotini ratsional tarzda umumlashtirish vazifasi turadi. Cherkov talabi – Xudo olamning yaratuvchisi, unga jon baxsh etadigan mohiyatdir, deb tushntiriladi.

Inson gunohkor zot, u faqat Xudo yordamidagina gunohlardan qutulishi mumkin. (Iso – insonning Xudo bilan birlashuviga faqat u orqali amalga oshuvi mumkin).

O'rta asrlar Ovrupa axloqshunosligining yirik vakillari *Avreliy Avgustin – ilohiy Avgustin* bo'lib, (354-430 Shim.Afrika) u xristian ilohiyotchisi, filosof, patriastikaning nufuzli vakilidir. O'zining "Tazarru" hamda "Ezgulik", "ixtiyor erkinligi haqida» degan asarlarida patriastitikaning himoya qiladi. Uning axloqshunosligida asosiy e'tibor dinga, ayniqsa xristian dinga qaratiladi. «Diniy e'tiqodsiz bilim yo'q, haqiqat yo'q», degan printsipiga bo'ysunib, Xudo barcha go'zalliklar manbai va eng oliy go'zallikdir, degan aqidani ilgari suradi.

Xudoning irodasi ezgulik, ne'mat, yagona oliy ne'mat. Hamma narsa, Xudodan bo'lgani uchun – ezgu, nimaiki bor ekan, hammasi ezgu: borliq – qadriyatlarning tartibli bosqichlaridan iborat. Borliq ichidagi eng muhim farq Xudo bilan olam, Yaratgan bilan yaratilishi orasidagi farqdir, yagona shu farq axloqning asosi hisoblanadi. Ikki xil munosabatni farqlamoq kerak, lazzat va foydaga intilish kerak. lazzat – faqat birgina Xudodan qolgan hamma narsalar foydalanish obe`ktidir. Xudo insonni – Odam Atoni erkin, gunoh qilmaslik imkoniyatiga ega zot qilib yaratdi. U ixtiyor erkinligining yo'nalishini belgilab beradi. Xudo ko'rsatmalaridan chekinish gunohdir.

Italiyalik axloqshunos *Nikkolo Makiavelli* (1469-1527). Uning «Hukmdor» (1513) asarida saxiylik, tejamkorlik, shafqat va shafqatsizlik, muhabbat va nafrat kabi tushunchalari haqida batafsil to'xtaladi. Hukmdorlarining shafqatsizlarcha olib borayotgan faoliyatini, siyosatini tahlil qilib beradi. U hukmdor o'z fuqarolarining ko'proq mehr-muhabbat emas, qurquvga erishishi keraqligini aytadi. Makiavelli «Hukmdor» risolasining XVIII bobida: «Shuni bilish kerakki, dushmanga qarshi ikki yo'l bilan kurashish mumkin: biri – qonun yo'li, ikkinchisi – kuch ishlatish. Birinchisi – insonga, ikkinchisi-yirtqichga xos. Ammo birinchisi yetarli natija bermaganligi uchun ko'pincha ikkinchi yo'lga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, hukmdor ham, inson ham yirtqich tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak».

Yirtqichlar orasida hukmdor ikki narsaga o'xshash uchun harakat qilmog'i zarur: bularning biri-arson, ikkinchisi-tulki...»

Makiavellining Ona Vatan Italiyani ozod va birlashgan holda kurashishni istaydi. Yangi davlat hukmdori talabchan va qattiqqul bo'lishi kerak, yangi milliy davlat tuzish uchun, hukmdor axloqini tahlil qilib, uning nimalarga e'tibor berishi keraqligini ko'rsatadi. Bunday ijobiy fikrlar Italiyada shakllanib kelayotgan burjua davlatiga zarurligini ko'rsatdi.

Makiavelli ozodlik, ozod Italiya, ozod jamiyat, shaxs erkinligi, faoliyat erkinligi kabi tushunchalarini falsafiy-axloqshunoslikda fan nuqtai-nazardan tushuntiradi. U davlat rahbarining axloqiy fazilatlarini nimalardan iborat bo'lishi keraqligini ko'rsatdi.

O'rta asrlar Ovrupa axloqshunosligida Fransiyalik *Mishel Eykem De Monten* ning axloqiy qarashlari mavjud. Montenning tanqidiy-naturalistik falsafasi ijtimoiy-axloqiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning e'tirof etishicha, inson hayotdan lazzat olishni, yashashni o'rganmogi lozim. «Hayot o'z mohiyatiga ko'ra nf ezgulik, na yovuzlikdan iborat, u ham ezgulik, ham ovuzlikning makonidir».¹

Mishel Monten har bir kishi hayotda ma'lum axloqiy qoidalarga amal qilishi, tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashashi, aql-zakovat hukmiga bo' so'nishi zarur ekanligini ta'kidlaydi.

3.2. Yangi davr axloqshunosligining tarixiy xususiyatlari.

VII-XVIII asrlar kishilik tarixida yangi bir bosqichni boshlab berdi va u yangi davr falsafasi, axloqshunosligi deb nomlanadi. Bu davr o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu davrdagi burjua inqilobi va xalq harakatlari natijasida bir qator Ovrupa mamlakatlarida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bo'ldi. Bundan qonuniy o'laroq Angliya, Gollandiya, Frantsiya va Germaniya kabi mamlakatlarda kapitalistik munosabatlar qaror topdi va u falsafa hamda axloqiy ta'limotlarda yangi sahifani ochdi.

Geografik va ilmiy kashfiyotlar tufayli axborot ko'lami juda kengaydi. Bu o'z navbatida fan rivojiga keng imkoniyatlar yaratdi. Tabiatshunoslikda yangi-yangi yutuqlar qo'lga kiritildi (Nyuton, Leybnits, Torichelli va boshqalar). Ijtimoiy – gumanitar fanlar adabiyot, san'at va madaniyatda ham tub o'zgarishlar bo'lib, tengi yo'q asarlar yaratildi. (Sheksper, Rembrandt va boshqalar). Ularda inson, axloq, nafosat kabi muammolar, ularning qudrati va go'zalligi kabi masalalar aks ettirildi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ma'naviyatida – axloqda bo'lgan bu burilishlar, tabiatni yangi davrdagi falsafiy-axloqiy fikrga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Insonga har tomonlama madaniy, erkin shaxs sifatidagi munosabat bu davrda muayyan tarzda yangilandi; uni ijodiy shaxs deb talqin va tahlil etish kontseptsiyasi yuzaga keldi. Inson aql-idroki axloqning manbai va axloqiy targibotning asosi deb hisoblandi. Axloq esa insonning fikrlovchi mavjudot sifatidagi holati tarzida ta'riflandi.

Niderlandiyalik faylasuf Benedikt (Baruh) Spinoza (1632-1677) axloqshunoslik borasida ratsional qarashlarni himoya qildi va yanada yuksak bosqichga olib chiqdi.

Spinozaning asosiy falsafiy g'oyalari uning eng muhim va yetuk asari – «Etika» da bayon qilingan.

Spinoza falsafiy tizimining asosida yagona substansiya haqidagi ta'limot yotadi. Haqiqat faqat bitta substansiya bo'lsa, uning atributi tabiat yoki fikrlash va uning ommaviylashgani, deb bilardi. Xudo to'g'risidagi qarashlarni Spinoza Kartezian tizimi atributlari bilan bog'laydi. «Xudodan boshqa hech qanday substansiya mavjud emas», deydi. «Etika» ning birinchi qismi 14- tasdiqda «Xudodan boshqa substansiya yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, bo'lmaydi ham, bunday tushunchaning o'zi yo'q». Bundan shunday xulosa kelib chiqadi; Borliqning mavjudligi Xudodan, Xudosiz hech narsa mavjud bo'lmaydi. Qayd etilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, Spinoza Xudo degan substansiyani mutlaqlashtiradi. Uning nazarida, Xudo va substansiya bir- biriga qo'shilib, unga hukmdor hamdir, u o'zgarishlar sabablarining markazida turadi.

Xudo (substansiya) to'g'risidagi uning ta'limoti «Etika»ning dastlabki qismida qator boshqa muhim holatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda ifodalangan. Substansiya o'zidan-o'zi davomiydir. Uning har bir atributini Spinozaning tasavvuricha «o'zi-o'zidan» deb tushunish lozim. Cheksiz va mukammal substansiya, tabiiyki qandaydir harakatni, qandaydir o'garishni inkor etadi.

U o'zining axloqiy qarashlaridan kelib chiqqan holda davlat aql-zakovat bilan qurilishi kerak, degan talabni qo'yadi. fuqarolari yaxshi fazilatlariga ega bo'lmasa ham, deydi Spinoza, doimo qo'rquvda yashamasliklari uchun davlat muntazam g'amxo'rlik qilishi lozim.

Angliyalik faylasuf-axloqshunos Djon Lokk (1632-1701) o'zining «Inson aqli to'g'risida tajriba» (1690), «Tarbiya haqida o'ylar» (1689) va «Xristianlikning aqlga muvofiqligi» (1689) va boshqa asarlarida kishilar bilimi, uning asosiy manbai bo'lmish tajriba haqida fikr yuritib, Dekartga qarshi chiqadi.

¹ Monten M.Opiti. V 3 kn.-M., 1979,C.88

U bilish – bu inson bilan tabiat orasidagi munosabat jarayonidan iborat ekanligi, kishi g'oyalarning, tushunchalarining moddiy olam predmetiga mos kelishidan haqiqat kelib chiqadi, degan fikrini beradi.

U bilish nazariyasida sensualizm tomonga turdi. Sensualizm – (lat *sensus* – his, sezgi) – bilish sohasidagi ta'limot bo'lib, sezgini bilishning birdan-bir manbai deb tushuntiradi. Dinsiz axloq bo'lmaydi, deb ko'rsatadi.

U baxt, yaxshilik, erkinlik kabi kategoriyalarga ham o'z fikrini bergan. Lokk o'zining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida tabiiy holatdan fuqarolik jamiyatiga va davlatning boshqarish shakllariga o'tish g'oyalari rivojlantirdi. Davlat hokimiyati: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ittifoq Federativ hokimiyatga bo'linadi Lokkning bu ilg'or g'oyalari hozirgacha o'z kuchini yo'qotgan emas va bu doimo qadrlanadi.

I. A. Karimov: «... biz ularni o'z davrida kelajak avlod uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijodiy ishlari, kerak bo'lsa, umumjahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini qadrlaymiz»¹, - deb ta'kidlagan edi.

3.3. Olmon mumtoz axloqshunosligi va rus mumtoz axloqshunosligining vujudga kelishi.

Olmon mumtoz falsafasi va axloqshunosligining yirik vakili *Immaniul Kant* (1724-1804) hisoblanadi. Uning «Axloqiy metafizikaning asoslari» (1785), «Amaliy aqlning tanqidi» (1788), «Hulqlar metafizikasi» (1797) asarlari asosan axloqshunoslikka bag'ishlangan. U axloqni ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida emas, balki, ilohiy kuch tomonidan vujudga keltirilgan jarayon deb tushuntiradi. Axloq aql mevasidir, degan fikrni ilgari suradi. Axloqning asoslarini u borliqdan, ijtimoiy hayotdan izlamaydi, balki tajribadan tashqaridagi obektiv olamdan qidirish kerak degan tezisini ishlab chiqdi. Kant inson faoliyatini teshirib, u ikki dunyoda yashaydi, sezgilari bilan his qiluvchi sifatida tabiat qonunlariga, zaruriyatga buysunib, aqli bilan esa erkinlik asosida tafakkur qonunlariga, axloq qoidalariga itoat etib yashaydi deb ko'rsatadi. Kant nazarida, axloqiylik mohiyat e'tibori ila insonning kundalik mayda tashvishlaridan yuksakka, ulug'vorlikka, ilohiylikka ko'tarilishidir. Axloq xudbinlik manfaatlariga amal qilishdan burchni anglashga o'tishdir. Kant axloqshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri – burch va vijdon haqida o'z fikrini berdi. U burchning ikki xilda mavjudligi ta'kidlaydi: huquqiy burch va axloqiy burch. Huquqiy burchni bajarish uchun tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch aksincha, fazilatga ya'ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog'liq. Shu bois insonning axloqiy burchga muvofiq hatti-harakat qilish qobiliyatini Kant fazilat deb ataydi. Huquqiy burch va axloqiy burch haqida fikr yuritadi.

Axloqiy burch ikkiga bo'linadi: a) insonning o'z oldidagi burchi b) boshqalarga nisbatan ularning aybdorligi yoki hurmatga munosibliklariga qaratilgan burch.

Kant axloqiy tushunchalar bo'lmish adolat, rostgo'ylik, do'stlik kabilarga ham o'z e'tiborini qaratgan.

Kant axloqshunosligining cho'qqisi – abadiy tinchlik g'oyasidir, degan fikrni talqin etadi. Urushlarni tanqid qiladi. Komilikka erishishning faol vositasi ma'rifatdir, deydi.

Iogan Fixte (1762-1814) –nemis klassik falsafasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri. Fixte ta'limoticha, cub'ekt birdan- bir reallikdir. U qudratli kuchga egadir. Shu boisdan uning falsafasida aql uchun mavjud olamni aks ettirish emas, balki uni yaratish muhimdir. Fixte inson erkinligi maslasiga oldingi mavjud qarashlarga nisbatan yangicha yondashib, uni chuqur o'rganishga harakat qilgan. Fixtening axloqiy qarashlarining markazida burjuaziyacha mazmun kacb etgan erkinlik tushunchasi turadi.

Fixte inson erkinligi masalasiga oldingi mavjud qarashlarga nisbatan yangicha yondashib, uni chuqur o'rganishga harakat qilgan. Fixte bu haqda shunday yozadi. «Erkinlik» haqida o'ylashdan avval yashash haqida o'ylash kerak. Har qanday erkinlik faoliyatning Oliy va umumiy maqsadi yashash imkonini yaratishdir.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. Toshkent, «SHarq», 1998 y.

Georg Vilxelm Fridrix Gegel (1770-1831) «Ilmga ishonch» (1802), «Ruh fenomenologiyasi» (1807 y), «Falsafiy fanlar qomusi» (1817 y), «Huquq falsafasi» (1821 y) asarlarida axloqshunoslikning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalagan. Xegel hulqiylik va axloqiylikni ikki tushunchaga bo'ladi. Hulqiylik tushunchasiga insonlardagi shaxsiy va xususiy o'zaro munosabatlarni, sube`ktiv fikrdagi majburlikni, idealni, ijtimoiy-tarixiy hodisalarga nisbatan takidiy kayfiyatlarini o'z ichiga oladigan jarayon kiradi.

Gegel axloqiylik deganda, odamning tarixan axloqdan oldin paydo bo'lgan urf-odatlar va rasm-rusumlarga, ikkinchi tomondan, davlat, tabaqalar, oila oldidagi axloq bilan bog'liq muayyan majburiyatga munosabatni nazarda tutadi.

Gegel hulqiylikka qasd va ayb, niyat va ezgulik, ezgulik va vijdon juftlik tushunchalarini kiritadi; axloqiylikka esa oila, fuqarolar jamiyati, davlat tushunchalarini kiritadi. Ezgulik – erk darajasiga ko'tarilgan ixtiyor; amalga oshirilgan erkinlik, olamning mutlaq so'nggi maqsadi.

Yovuzlik va zaruriyat – biroq u ruy bermasligi kerak. Geygel muhabbat, nikoh, oila, fuqarolar jamiyati va davlat haqida ham o'ziga xos fikrlar bayon qildi. Sevgi – hissiyot, boshqacha qilib aytganda, shaklga tushgan tabiatdagi axloqiylikdir. Xeygel Kant kabi insoniyatga katta mas'uliyat yuklaydi. Uning xulosasi qat'iy: «Qonun harakat qilmaydi, faqat inson harakat qiladi».

Lyudvig Feyerbax (1804-1872 y) falsafasida tabiatdan uzilmagan inson turadi. L. Feyerbax: «Haqiqiy falsafa kitob yozishdan emas, odamlarni yaratishdan iborat... Yangi falsafaning ildizi, muhabbatning haqiqiyligida». Axloqshunoslik masalalari, ayniqsa uning «O'lmaslik haqida masalaga insonshunoslik (antropologiya) nuqtai-nazaridan qarash (1846-1866) «Spirinkalchilik va moddiyatchilik hamda ixtiyor erkinligiga ular munosabatining o'ziga xosligi haqida» (1863-1866), «Evdeychilik» (1867-1869) degan asarlarida, kundalik va xatlarida ko'tarilgan.

Uning axloqiy ta'limoti asosan ixtiyor erkinligi va baxt tushunchalariga yo'naltirgan. Feyerbax ta'biricha, insonning mohiyati, hayoliy mavxumot, «ruh» emas, balki hissiyotdir. Insonga tanlov ixtiyori, ixtiyor erkinligi berilgan.

Feyerbax baxt, muhabbat tushunchalariga ham to'xtaladi. U hayot muhabbatdan (boshlanadi) iborat, insonni bilish uchun uni sevish kerak deydi. Feyerbaxni tom ma'noda daxriy deyish, nojoiz. To'g'ri, u Xudoni tan olmaydi, cherkovdan nafratlanadi, lekin odamga siginishni taqlif etadi.

Olmon mumtoz axloqshunoslari insoniyat jamiyati taraqqiyotiga, uning axloqiy yuksalishiga o'lgan hissa qo'shdilar. Biroq ularning nazariyalari, ilgari surgan g'oyalari va axloqiy qarashlarida yutuqlar bilan birga kamchiliklar, nuqsonlar ham uchrab turdi. Masalan, I.Kant axloqshunoslikni asosan burch tushunchasiga olib borib taqab qo'yadi, burchning bajarilishida hatti-harakatlarni mavjud shart-sharoitdan ustun qo'yadi, natijada uning axloqiy talabi ko'proq tirik olamga emas, ideal olamga qaratilgan me'yorga aylanib qoladi. Fixte va Shellinglar axloqning mohiyatini faqat insonning transtsendental poklikka intilishida ko'radilar.

Xegel axloqiy munosabatlarning sube`ktiv jihatlarini, shaxsning axloqiy javobgarligini bir chetga surib qo'yadi, jamiyat va davlat manfaatlarini har qanday holatda ham ustun qo'yadi.

Feyerbax esa axloqiy munosabatlarida inson hissiyotiga nihoyatda ortiqcha baho berdi, aqlga deyarli o'rin qoldirmadi. Biroq, olmon mumtoz faylasuflari, axloqshunoslarining qoldirgan ta'limotlari kelgusi ijtimoiy hayotda, fan taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Rus mumtoz axloqshunosligi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus mumtoz axloqshunosligi vujudga keldi. Rus mutafakkirlari ma'naviyatning barcha sohalarida, shu jumladan axloqshunoslikda jahonda yetakchilik mavqeini egallaydilar: L. Tolstoy, F. Dostoevskiy, I. Turgenov, N. Nekrasov, N. Chernishevskiy, N. Losskiy, N. Berdyayev... A. Chexov, A. Axmatova, S. Yesenin, M. Gorkiy, V. Vernadskiy, A. Losov kabilarni tilga olsa arziydi.

Rus faylasufi Vl. Solovev (1853-1900) o'z axloqiy qarashlarini «Ezgulikni oqlash. Axloq falsafasi» (1897) kitobida ifodalab beradi. Uning birinchi qismida uyat, shafqat yoki achinish va xudojuylukdan iborat axloqiy tushunchalar uchligi asosiy o'rinni egallaydi.

Uyat tubanlikka va nokomillikka tushib qolganlikdir. V. Solovev fikricha, achinish va shafqat uyatchanlikka zaruriy qo'shimchalardir.

Aroqxur va xotinboz ham ko'ngli bo'sh, shafqatli bo'lishi mumkin, lekin bunday kishini axloqiy shaxs deb atash mumkin emas. Demak, uyat inson hatti-harakatini boshqarib turuvchi axloqiy hodisadir.

V. Solovev odamlarni yaxshi va yomonga, shafiq va yovuzga ajratishni ilmiy nuqtai nazardan xato, insoniylik nuqtai nazardan esa nohaqlik deb biladi: insonni yaxlit va bira tulasi axloqiy baholash

mumkin emas, uning fe'l-atvoriga, qilmishiga qarab baho berish lozimligini ta'kidlaydi: «... Men ikki narsani tabiatda uchratmadim: aniq-mukammal halol odamni, aniq-mukammal yovuz odamni», - deydi faylasuf. Solovevning axloqiy ta'limoti, teran fikrlari axloq falsafasi bilan shug'ullangan mutafakkirlarning ham donishmandlikning yuksak namunasi sifatida tafakkur axlining diqqat markazidir.

Nikolay Aleksandrovich Berdiyaev (1874-1948). «Insonning vazifasi haqida» (1931), «O'z-o'zini anglash» (1949), «Ilohiylik va insoniylikning ekzistentsial dialektikasi» (1952) kabi asarlarida axloq-odob masalalariga e'tiborni qaratdi. Uning asosiy g'oyasi – erkinlik. U yovuzlik ijobiy borliqqa ega emas, u ezgulikdan ugirlangan xususiyati bilangina kishini o'ziga agdaradi. U nafaqat mavjud, balki dunyoda ezgulikdan ko'ra ko'proqdir, deb ta'kidlaydi.

N. Berdiyaev ezgulik va yovuzlik orasidagi munosabatlarning jun emasligini, ularda ekzistentsial dialektika borligini ta'kidlaydi. Zero, yovuzlik ham ezgulikka aylanishi mumkin. Lekin, shuning barobarida, yovuzlik ham ezgulik bo'lib qayta tugiladi ya'ni, inson agar barcha imkoniyatlar sinovidan o'tsa, ezgulik va yovuzlik tajribalarini boshidan kechirsa, u holda yovuzlikning o'zi ezgulikning dialektik ibtidosi bo'lib qoladi.

Noratsional axloqiy ta'limotlar.

Yangi davr axloqshunosligida vujudga kelgan oqimlarni yirik ikki guruhga bo'lish mumkin. Ularning biri – idealistga – noratsional, ikkinchisi – moddiyot yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ana shu oqimlarga olmon mumtoz axloqshunoslarining ta'siri bo'lgan.

Birinchi guruhdagilar ularni inkor etish yo'lidan borsa, ikkinchisi tanqidiy tasdiq yo'lidan bordi. Noratsional ta'limotni yaratgan dastlabki faylasuflardan biri donimark yozuvchisi, ilohiyotchi Syoren *Aabe Kirkegaard* (1813-1855) bo'lib, ilk bor inson shaxsi va taqdirini birinchi o'ringa olib chiqadi, insoniy sube'ktivlikni asosiy muammo sifatida talqin etadi. Uning axloqiy qarashlari «Yo – u, yo - bu» (1843), «Qo'rquv va titroq» (1843), «Hayot yo'lining bosqichlari» (1843), «O'limga yetaqlovchi dard» (1849) kabi falsafiy kitoblari, kundaliklari va badiiy asarlarida aks ettirilgan.

Kirkegaard asarlarida ma'naviy hayotini qo'rquv, havotir, umidsizlik, notinchlik singari negativ tomonlari tadqiq etiladi. Inson o'z mas'uliyatini chuqur his qilishi kerak, deydi. Uningcha mavjudlik uch bosqichdan iborat, bo'lar: estetik, axloqiy va diniy bosqichdir. Birinchi bosqichning tamoyili – lazzat, ikkinchisi – burch, uchinchisi – iztirob. Estetik bosqich hissiyotlar olami orqali amalga oshadi. Musiqa, teatr ayollar uning xizmatida bo'ladi. Axloqiy bosqich so'nggi bosqich emas, u o'tish holati; eng yuksak daraja diniy bosqichdir. Axloqiy bosqichda inson baxtga, oilaviy, nikohdagi bosqichga intiladi, umumiy qonunga buysunib yashaydi. Bu bosqichda inson o'z erkini, ixtiyor erkinligini tula namoyon qila olmaydi. Diniy bosqich eng yuqori daraja bo'lib, Xudo bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'ladi. Qo'rquvga Kirkegaard katta ahamiyat beradi. Haqiqiy qo'rquv – bu gunohkor bandaning Tangri oldidagi qo'rquvidir. Burch – Xudo irodasining ifodasidir. Xudodan qo'rqish insondagi yangi imkoniyatlarni ochadi.

Syoren Kirkegardning axloqiy ta'limoti Ovropa falsafasida butunlay yangi bir yo'nalishga asos soldi: insonni faqat aql yordamida, mantiqiy tushunchalar vositasida anglab bo'lmaydi, inson tushunchasi cheksizdir, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Uning axloqshunoslikdagi fikrlari ekzistentsiyachilik oqimiga asos soldi.

Yangi davr axloqshunosligida ma'lum iz qoldirganlardan biri *Artur Shopenxauer* (1788-1860) bo'lib, «Olam ixtiyor va tasavvur sifatida» (1819-1844), «Hayot maktabining hikmatlari» (1851), «Axloqshunoslikning ikki asosiy muammosi» (1896) asarlarida axloqiy muammolarini o'rtaga tashlaydi.

Shopenxauer ta'limotiga ko'ra, olam inson ko'z ochishi bilan ko'rgan, hidlaru ranglarga, tovushlaru sukunatga, issig'u sovuqqa to'la, dunyo faqat va faqat tasavvurdan iborat. «Olam-mening tasavvurim», deydi faylasuf.

Olam sube'kt va obe'ktining o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi... Inson esa, eng avvalo, ixtiyor etuvchi, istovchi, xirs kuyguvchi va faqat undan keyingina, biluvchi fikrlovchi mavjudot. Ixtiyorning namoyon bo'lish shakli faqat hozir, kelajak ham, o'tmish ham emas. Shu «Hozir» ning manbai va mazmunini o'zida mujassam etadigan narsa – yashashga ixtiyor, ya'ni o'zimizdan iborat bo'lgan «narsa o'zida».

Olamiy ixtiyor yoki sifatidagi olam insonni o'z yurigida tutadi... Insondagi xudbinlik uni ixtiyorga qul qilib qo'yadi: o'zim bo'lsam, hammasi meniki bo'lsa, degan aqida bilan ish ko'radi. Inson bir istak bilan kifoyalanmaydi. Natijada uning hayoti tinimsiz harakatdan iborat bo'ladi, o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymaydi. Bu hayot – hayot emas, yovuzlik, yolg'on, azob, fojialardan iborat mavjudlikdir...

Shopenxauer hayot falsafasi oqimiga asos solgan buyuk allomadir.

Fridrix Nittsshe. (1844-1900) «Zardusht dediki...» (833-1884), «Ezgulik va yovuzlikning narigi tarafida» (1886), «Axloqning kelib chiqishiga doir» (1877), «Hukmronlikka ixtiyor. Barcha qadriyatlarni qayta baholash tajribasi» (1889-1901) singari asarlarida axloqshunoslikka oid fikrlarini bergan.

Nittsshe odam, uning fazilatlarini haqida fikr beradi. Nittsshe Shopenxauerning shogirdi. Shopenxauer axloqiy illatlarni birinchi o'ringa qo'yib, fazilatlarini mustaqil hodisalar emas, balki illatlarning aksi tarzida talkik etadi. Nittsshe esa bu borada yana ham ilgari ketdi: illatlarni fazilat tarzida, fazilatlarini illat tarzida taqdim qiladi. uning nazdida, inson o'z illatlarini tuzatmasa ham, ularni ochiq, halol e'tirof etishi, illatlarimizni fazilatlar orasida berkitib turishdan, fazilatlar bilan nikoblashdan afzaldir, deydi.

Nittsshe, shu sababdan ham ezgulik, shafqat, burch kabi tushunchalarni emas, to'g'rilik va axloqlikni axloqning negizi deb biladi.

3.4. Eng yangi davr axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar.

XX asrning nufuzli g'oyaviy oqimlaridan biri avstriyalik tabib va psixiatr *Zigmund Freyd-Zigmund Shlomo* (1856-1939) nomi bilan bevosita bog'liqdir. U ruhiy asab kasalligini davolashning umumiy nazariyasi va uslubini, uning nazariy asosini ishlab chiqdi. Freydezmning nazariy asosini psixoanaliz tashkil qiladi. Psixoanaliz ongsizlik holatini falsafiy talqin etib inson ruhiyatini ongli harakatlarning hamda oqilona tarzda bilib bo'lmaydigan va ongsizlik olamini tashkil etadigan instinktlarning murakkab majmui deb biladi.

Freyd ko'p kuzatuvlari, aql va o'z kechinmalariga suyanib, ruhiy kasallikning muvafaqqiyatli davolashning axloqiy muammolariga murojat qilmasdan hal etib bo'lmasligini aniqladi va bemor o'z qalbi extiyojlarini hisobga olmaganligi uchun kasallanadi, degan xulosaga keldi.

Freyd onglilik va ongsizlik masalasiga alohida to'xtaldi. Ongsizlikdan onglilik kelib chiqishini ko'rsatdi. Anglanmagan holatdagi fikrlar, his-tuyg'ular umuman yo'qolib ketmaydi, biroq xotiraga chiqish uchun yo'l qo'yilmaydi. Ular ongda bilvosita ongsizlik tarzida namoyon bo'ladi: bilmay gapirib yuborish, xato yozib yuborish, tush, nevrozlar singari galati harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Onglanmagan holati g'oyat yashovchan, vaktga buysunmaydi. Freyd barcha illatlarning va vijdon, qo'rquv, aybini his qilish, tazarru singari fazilatlarining kelib chiqishini, faoliyatini, deyarli barcha axloqiy hodisalalarni asosan «Edip kompleksi» ga olib borib takab qo'yadi, deydi.

Erix Fromm (1900-1980) asosiy e'tiborini, diqqatini inson qalbining axloqiy talabalariga munosabatini ochishga, totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarchilik (biofillik) va uliksevarlik (nekrofillik) haqidagi muloxazalarga qaratdi. Uning «Sevish san'ati» (1856), «Inoyat qalbi. Uning ezgulik va yovuzlik qobiliyati» (1964) kabi asarlarida axloqiy muammolarga keng o'rin berilgan. Uning fikricha, yovuzlik insoniy hodisa. U insoniylik holatidan ortga kaytish, insonga xos, aql, muhabbat, erk xusumatlarini yo'l qilishga bo'lgan intilish. Ayni paytda, u fojeiy holatdir. Inson ezgulik va yovuzlikka moyil.

Fromm o'z ustoziga nisbatan kengroq miqyosida harakat qiladi. Inson tabiati nafaqat biologik balki tarixiylik bilan shartlangan, deydi. Erix Fromm muhabbat muammosiga tuxatalib, bu har biri uzligini saqlangan holatda ikki kishining birlashuvi. Muhabbat – bu harakat, orom emas, faollik, kuzatish emas. Sevish - olish emas, berish. Sevigida inson o'zi uchun eng bebaho bo'lgan hayotning bir qismini – hissiyotni, bilimi, kechirmalarini bag'ishlaydi, bu nafis bir lazzatdir. U muhabbatni g'amxo'rlik, mas'uliyat, hurmat va ilm unsurlaridan deb biladi, hamda mas'uliyatni hurmat bilan bog'laydi. Hurmat, bu – qo'rquv yoki kul kovushtirish emas, u insonni qanday bo'lsa, shunday qabul etishini talab etadi.

XX asrda axloqlik tafakkurida chuqur iz qoldirgan falsafiy-axloqiy yo'nalishlardan yana biri ekzistentsiyachilikdir. U insonni, eng avvalo, o'z hayotini insoniylik vazifasini bajarish uchun qurbon qilgan mavjudot sifatida olib qaraydi.

Ekzistentsializmning vatani dastlab Rossiya bo'lgan. Biroq 1 – jahon urushidan keyin Germaniyada keng tarqalgan va rivojlangan falsafiy yo'nalishdir.

«Ekzistentsiya» deganda ekzistentsialist faylasuflar kishining har lahzada hayot va o'lim bo'sag'asida kechadigan ichki kechinmalari yoki «borliqda mavjudlik» jarayonini tushunishadi. «Borliq» ekzistentsialistlar fikricha, na «obe`ktga», na «sube`ktga» bo'linuvchi, bevosita idroq etuvchi narsadir.

Ekzistentsiya qiluvchi mutafakkir voqelikka sub'ektiv tarzda qarashli, ya'ni voqelik faqat uning individual mavjudligi va emotsional (extirosiy) hayoti orqali qanday aks etsa, unga shundayligicha qarash kerak, deb tan oladi.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan falsafiy yo'nalishlardan biri ekzistentsializm (lotincha «ekzistentsiya» yoki inglizcha «ekzistika» so'zidan olingan bo'lib, «mavjudlik», «mavjud bo'lmoq» degan ma'noni anglatadi), dastlab Rossiyada (Berdyayev, Shestov), Germaniyada (Xaydegger, Yaspers va boshqalar), Frantsiyada (R. Marsel, A. Komyu va boshqalar), keyinchalik Amerika, Italiya, Yaponiya, Hindistonda tarqaldi. Ekzistentsionalizm insonni jamiyatda tutgan o'rni va rolini inkor qilishga, yo'qqa chiqarishga harakat qiladi. Ularga inson notavonlik maxluq, unga qo'rquv, o'lim, umidsizlik hamma vaqt raxnamo. Umidsizlik va o'lim ekzistentsializm falsafasining asosiy kategoriyalardir.

Ekzistentsialistlar fikricha, kishi o'zining mavjudligini chuqur ma'naviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatidagina anglay oladi. «O'lim» mavjudlikning so'nggi nuqtasi, deb e'lon qilinadi.

Olmon faylasufi *Martin Xaydegger* (1889-1976) ekzistentsiyachilikning asoschisidir. Ekzistentsiachilik Xaydeggerdan so'ng, ikki yo'nalishda - diniy va daxriylik yo'nalishlarida davom etdi.

Diniy ekzistentsializmning eng yirik vakillaridan biri, olmon faylasufi *Karl Yaspersdir* (1883-1936). U o'z asarlarida, xususan, «Zamonning ma'naviy holati» (1932), «Falsafiy e'tiqod» (1948) degan kitoblarda inson mavjudligining XX asrda qanday tushunish masalasiga to'xtaladi va bu mavjudlikning axloqiy jihatlarini tahlil etadi.

Karl Yaspers qarashlarida an'anaviy ma'naviy merosni egallash inson axloqiy darajasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Jon Pol Sartr (1905-1980) Frantsiyaning ekzistentsiachilik axloqshunosligining eng ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biridir. U ekzistentsiachilikning daxriylik yo'nalishiga mansub faylasufdir. Uningcha, inson o'zining borligi uchun mas'uldir. Har qanday insonning hukmiga uning borligini xavola qiladi va mavjudligi uchun to'liq mas'uliyatni uning o'ziga yuklaydi. Sartr har bir inson axloqini uning hatti-harakati tashkil qiladi, deb ta'kidlaydi. «Ekzistentsiachilik, bu – insonning harakatga bo'lgan hohishini o'ldirishga bo'lgan intilish emas zero u insonga bor umid faqat uning harakatida ekanini va faqat yagona harakatigina insonning yashashi uchun imkon berishini aytadi. Demak, bu borada biz harakat va jur'at aloqa bilan ish ko'ramiz». Jon – Pol – Satr 1946 yildagi bir ma'ruzasida ekzistentsializm – bu gumanizm deb e'lon qildi. Uning bu chiqishi tushkunlikni targ'ib etuvchi ekzistentsialistlarni qarashlarida zid edi. «Poshsha» nomli pesasida u gumanizm ruhida bo'lgan ijtimoiy mas'uliyat haqida badiiy obraz yaratdi. Jon – Pol – Sartr hayotining keyingi davrlarida tinchlik uchun kurash, urush xavfini yo'hotish, xalqlar o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatish uchun kurashdi, gumanizm tarafdori bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

XX asr axloqshunosligida ruhiy tahlil, ekzistentsiyachilik yo'nalishlaridan tashqari, g'ayrizo'ravonlik, tasavvuf axloqshunosligi yo'nalishlari ham vujudga keldi.

XX asrda yuzaga kelgan va amaliyotda muvaffaqiyatga erishgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmasidan kurashish-g'ayrizo'ravonlik axloqshunosligini keltirib chiqardi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlagan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmasiga ana – shu sabr-bardosh, chidam orqali bo'ysunishini emas, balki kurashishni taqazo etadi.

XIX asr mutafakkiri, amerikalik faylasuf-axloqshunos Xenri Devid Toro (1817-1862) g'ayrizo'ravonlik yo'nalishining asoschilaridan biridir. U mehnatkash xalqning manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatdi, tinchlik yo'li, konsiz inqilobni amalga oshirish yo'li bilan xalqini talab-extiyojlarini kondirish mumkin, deb aytadi.

Toro g'oyalarini buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi *Karamchand Gandi* (1869-1948); amerikalik ruhoni, faylasuf va jamoat arbobi *Marten Moter King* (1929-1968) va boshqalar davom ettirishdi va yuqori pog'onaga ko'tardilar. Gandi Xirosima va Nagasakiga atom bombasi tashlanganida atom bombasining boshqa bomba bilan yo'hotib bo'lmagani kabi zo'ravonlikni zo'ravonlik qilib yo'hotish mumkin emas degan fikrni bildirib shunday deydi: «Insoniyat zo'ravonlikdan faqat g'ayrizurvonlik yo'li orqali qutulishi mumkin. G'azabni faqat mehr bilan yengsa bo'ladi. G'azabga g'azab bilan javob berishi g'azabning yoyilishiga va kuchayishiga xizmat qiladi».

Martin Moter King ham shunday g'oyani ilgari surgan edi. Konli urushlar, inqiloblar, terror, qurolli qo'zg'olon singari hodisalar muayyan millat va mamlakat erishgan yutuqlarni yo'qqa chiqaradi, vayrongarchilik, ma'naviy qadriyatlarining oyoqosti bo'lishi singari o'lkan fojealarga olib keladi.

XX asrda vujudga kelgan yo'nalishlardan yana biri «Hayotga ehtirom» nomi bilan aytiladi. Uni olmon faylasufi, shifokori Albert Shvaytser (1875-1965) «Madaniyat va axloq» deb nomlangan kitobida hayot tabiatdan yaratgan eng oliy ne'mat sifatida talqin etiladi. Shvaytser olga surgan hayotga ehtirom axloqiy ta'limotni insonlarni shafqatli, muruvvat zot bo'lib umr kechirishga chorlaydi. Bugunda zamonaviy insonda ekologik madaniyatning vujudga kelishida, etosferani yaratilishida muhim ahamiyatga egadir.

Buyuk turk allomasi *Muhammad Zoxid Kutku* (1897-1980) va uning shogirdi, prodyussor Maxmud As'ad Jushonning (1938-2001) qarashlarida tasavvufiy yo'nalishlar uning mazmuni va mohiyatini tushuntirishda M. Z. Kutku besh jildlik «Tasavvufiy axloq» deb nomlangan asarida axloqiy masalalarni ilgari surdi. Jushon esa o'z asarlarida nafs va uni yengish muaamolarni ilgari surdi.

Fransiyalik «Hayot falsafasining» mashhur namoyondasi *Anri Bergson* ta'limotini o'rganish falsafadagi ruhiyat va ma'naviyat masalalarini chuqur va har tomonlama o'rganishga yordam beradi.

1932 yilda A. Bergsonning «Axloq va dinning ikki manba'i» nomli asari nashrdan chiqadi. Bu asarda Bergson insoniyat tarixi rivoji to'g'risidagi fikrlarini bayon etadi. Bergson fikricha, inson va jamiyatni biologic evolyusiya zanjiriga, tabiiy bilimlar insonni hayvonot olamidanda kelib chiqqanini isbotlagani uchun qo'shish kerak emas, faylasuf uchun bu hol ikkinchi darajali rol o'ynaydi, chunki bunda axloqning kelib chiqish sababini bilmay qolishi mumkin.

Olim fikricha, axloq «yashirin» xususiyatga egadir: chunki uning mohiyati haqiqatan ham «yashirindir». Axloq o'zgaruvchan tug'ma xususiyatga ega emas. Shuning uchun ham axloq insoniyatning mahsuli sifatida talqin qilinadi, u «ijtimoiy kelishuv» natijasidir.

Bergson axloqning «tabiiy ko'rinish»iga o'z e'tiborini qaratadi. Axloqiy normalarning qanday qilib inson ongida qabul qilinishi va «shunday qabul qilinganligi» uchun ham ular bajarilishi kerakligi uni qiziqtiradi. Urf- odat «standart» «yashirin» axloqning bir shaklidir. Axloqiy imperativ uni ko'p ho'jayrali biologik organizmning instinkti darajasigacha olib kelib qo'yadi. Urf- odat individ turmushini ijtimoiy hayot talablariga bo'ysundiradi. «Jamiyat a'zolari, - deb yozadi Bergson, - organizmning hujayrasiga o'xshaydi».

Shunday qilib, «yashirin» axloq tug'ma emas, balki uning kelib chiqishi biologik xususiyatga ega, instinktlarga o'xshab ketadi. Shuning uchun ham axloqning manbai «tabiiy»dir. Instinkt bilan axloqning umumiy tabiati biologikdir.

Ularning asarlarida, inson hayoti oliy qadriyat ekani ta'kidlangani holda, o'zganing hayotini o'zingnikidan oliyroq qadriyat deb qarash g'oyasi ilgari suriladi.

Xulosa. Tasavvuf ham ijtimoiy qamrovga ega bo'lgan hodisa bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotda ma'lum ta'sir qiladi, uning o'rni benihoya kattadir.

Yangi va eng yangi davr axloqshunosligida mavjud bo'lgan ta'limotlar va yo'nalishlar, unda qo'yilgan muammolar, ularning mazmuni va mohiyatini ochib berish orqali o'sha davr tarixidagi voqea va hodisalarga munosabat bildiradi va ulardan tanqidiy, ijobiy foydalanish tavsiya etiladi. Chunki yangi davr axloqshunosligi falsafa tarixida muhim rol o'ynaydi.

Tayanch tushunchalar:

Yangi davr, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'limot, olam, gayrizo'ravonlik, burch, axloqiylik, muhabbat, baxt, vijdon, iztirob, odam, hayo, uyat, insof, Vatanparvarlik, halollik, achinish, , ruhiy tahdid, ekzistentsiya, qurquv, mavjudlik.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'rta asrlar va Oygonish davrida Ovro'pa mamlakatlaridagi axloqshunoslik haqida gapirib bering?
2. Nemis klassik axloqshunosligining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Yangi davr axloqshunosligida qaysi munaffakkirlarning ta'limoti ahamiyatli ?
4. Yangi va eng yangi davr axloqshunosligining rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan olimlar kimlar?

Adabiyotlar:

1. S.Yo'ldoshev, M.Usmonov, R.Karimov, G.Qobulniyozova, G.Ro'zmatova.Yangi va eng yangi davr falsafasi. 2002. 28-33-105-208- betlar.
2. E.Yusupov. Falsafa. Toshkent. 2003. 143-145-betlar.
3. Garb falsafasi. Toshkent. 2004. 288-291-359-360-367-368- 573-574-betlar.
4. I.Saifnazarov, B.Qosimov, A Muxtorov, G.Nikitchenko. Fanning falsafiy masalalari. Toshkent. 2007. 60-115 - betlar.
5. Axloqshunoslik. A.Sher.Yangi asr avlodi. Toshkent. 2003. 87-125 – betlar.
6. S.Yo'ldoshev, M.Usmonov, R.Karimov, G.Qobulniyozova, G.Ro'zmatova.Yangi va eng yangi davr falsafasi. 2002. 120-121-123-155-156- betlar.

**4-mavzu: Axloq va uning kelib chiqishida ixtiyor erkinligining ahamiyati. Axloq tuzilmasi.
Axloqning ma'naviyat tizimidagi o'rni.**

Reja:

1. Axloqning kelib chiqishi va mohiyati.
2. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari.
3. Axloq tuzilmasi.
4. Axloqning boshqa ma'naviy tuzilmalar bilan o'zaro aloqalari va birlashtiruvchilik xususiyati.

4.1. Axloqning kelib chiqishi va mohiyati

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishida kishilarning mehnat faoliyatlari, iqtisodiy munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Mehnat tufayli insonning aqliy, axloqiy va boshqa faoliyati shakllana boshlaydi.

Falsafiy – axloqiy fikrlar vujudga kelgandan boshlab hozirga kunga qadar hayot yuzaga keltirgan turli tuman masalalar, kishilarni qiziqtirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazida turadi. Shuning uchun axloqning kelib chiqishida hayot tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Hayot eng avvalo inson axloqining manbai va xazinasidir.

Qadimgi ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat, deb qabul qilingan. Bo'lar – nabotot, hayvonot va bashariyat olami, ularning o'zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Bu uch olam o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib faoliyat ko'rsatadi. O'simliklar dunyosi ham paydo bo'ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o'rnini sirach chiqarib davolaydi – muxofaza qiladi, urugini qoldirib, bir kun kuriydi.

Hayvonot olami ham shunday xususiyatlar bilan birgalikda sezish a'zolari va qobiliyati hamda muayyan darajada idroq etish hislatiga ega. Insonda esa bo'lardan tashqari muxofaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi – aqli bor. Uni Imom Gazzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi. Axloq jamiyatda kishilarning hatti-harakatlarini, hulq-atvorlarini tartibga soluvchi extiyojlar mavjud bo'lganligi uchun kelib chiqdi.

Axloqning kelib chiqishida ijtimoiy muhit ya'ni ijtimoiy hayot, ijtimoiy omillar bo'lishi zarur.

Insonning ongi, uning barcha aqliy va ruhiy qobiliyatlari, uning jamiyatdagi hayoti, faoliyati davomida tarkib topadi va ma'lum ijtimoiy shart-sharoitlar bilan taqozo qilinadi. Odam bolasi faqat jamiyatdagina ijtimoiy muhit ta'sirida ijtimoiy ongli zot – insonga aylanadi, shaxs darajasiga ko'tariladi.

Ijtimoiy taraqqiyot bilan birga rivojlanib borgan ong insonda tafakkur qonunlari, axloq, huquq normalari, diniy, ilmiy, estetik va etik qarashlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Ong o'zining paydo bo'lgan paytidan boshlab insonning hatti-harakatini, aql-idroqini, fikrini shakllantiradi, kishining muayyan hayot tarzini, madaniyat va ma'naviyatning egasi (sube'kti) qilib yetishtiradi.

Demak, ong odamni hayvonot dunyosidan ajratgan ijtimoiy – tarixiy hodisadir. Insonning paydo bo'lishi bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu haqda bir-biriga qarama-qarshi ikki qarash mavjud. Biri – diniy, ikkinchisi – daxriycha qarashdir. Diniy qarash bo'yicha odamni Xudo yaratgan. Daxriycha qarash buni inkor etadi, odamni tabiat yaratgan, tabiatning bir qismi degan g'oyani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiatshunosi Charlz Darvin (1809-1882) fikrlari alohida e'tiborga molik. Darvin tabiat turlarining tanlov yo'li bilan kelib chiqishi haqidagi evolyutsion ta'limotini yaratdi. U odam bilan odamsimon maymunlarning qarindoshligini isbotlashga o'rindi, biroq u to'g'ridan to'g'ri odam maymundan tarqalgan jonzot, degan fikrni aytgan emas.

Shuningdek, Darvin daxriy bo'lmagan, hamma qatori nasroniylik qonun-qoidalariga amal qilib yashagan. U Xudoni inkor etmagan. Daxriylik asri bo'lmish XX asrda ham, insonni Xudo yaratgan degan fikr o'z kuchini yo'hotgan emas.

XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshqa jonzotlardan keltirib chiqarish nojoizligini ko'rsatib, inson transtsendental borliqqa ega, unig imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanin o'zi ham bilmaydi, deb ulug'laydi. Demak, axloqning kelib chiqishi va uning mohiyati inson nomi bilan bog'liq ekan, u erkinlikka, ixtiyor erkinligiga harakat qiladi. Ixtiyor erkinligi insonga berilgan buyuk ne'matdir va u cheklanmagan.

Demak, axloqning kelib chiqishi, inson faoliyati bilan bevosita faoliyat bo'lib, insonning zaruriyatidan kelib chiqqan ijtimoiy tasodifiyatdir. Insoning hatti-harakati, yurish-turish normalari, munosabatlarini tartibga solib turuvchi omil axloqdir.

4.2. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari.

“Erkinlik – insonni siyosiy, ma’naviy zo’riqishdan, zo’ravonlikdan himoya qilishdir. Erkinlik-o’z baxtini o’zi yaratish vositasidir. Erkinlik jamiyati va boshqa ma’rifatli kishilar bilan insonning muloqotga kirishish xuquqidir. Erkinlik – jamiyat tomonidan insonni ochlikdan va qashshoqlikdan, qo’rquvdan jaholatdan yakkalanib qolishdan himoya qilishining kafolatlanishidir.

Erkinlikni jamiyatning turli sohalari bilan bog’lab aniq tushunchalar hosil etiladi. Masalan vijdon erkinligi, fuqarolar erkinligi, iroda erkinligi, fikr erkinligi, so’z erkinligi, matbuot erkinligi va h.k. e.- bosh- boshdoqlik uchun emas, balki jamiyatda muayyan ijtimoiy tartib uchun mas’uliyat – ijtimoiy makondir. Burch- insonning jamiyat oldidagi vazifasi. Mana shu vazifani bajarishni erkin, ixtiyoriy tanlash, irodaga ega bo’lish, bajarish uchun erkin muhitga ega bo’lish insonning ma’naviy – axloqiy jihatidir.

Inson ruhi, ongi, boylik, martaba vasvasasi bilan zanjirlangan ekan, uning fikri erkin bo’lolmaydi. Ana shu zanjir ozod bo’lishi yoki zanjirbandligini anglash ma’suliyatidan qochish bilan band bo’lar ekan, inson o’zining erkini cheklaydi.

Erkinlik anglashib olingan zaruriyat ekan, u ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov asosida namoyon bo’ladi.

Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga buysundirilgan ravishda cheklanadi ya’ni nisbiylashadi. Insonning ixtiyor erkinligi ma’lum mas’uliyat bilan faoliyat ko’rsatishini talab qiladi. Erkinlik tarixiy taraqqiyotining zaruriy maxsulidr. Ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas’uliyat hissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas’uliyat shaxs faoliyatida o’z-o’zini boshqarishni, tartibga solishdir. Shaxsning jamiyatda to’rgan o’rniga qarab mas’uliyatning kulami ham xilma xil bo’ladi. Jamiyatning oddiy a’zosi ota-ona, farzandlar, jamoa oldida u yoki bu darajada mas’uliyatni sezadi. Buyuk shaxslar, davlat arboblari esa vatan, xalq, tarix oldida, tarixiy zaruriyatlarni hal qilishida mas’uliyat ko’p bo’ladi. Shunga yarasha ularning har bir qo’rgan qadami, fikri oldida javobgarlik hissi, mas’uliyati yuqori bo’ladi.

Insonning hayot faoliyati ixtiyor erkinligi va mas’uliyati asosida namoyon bo’ladi va hayotning turli xil ko’rinishida o’z ifodasini topadi. Inson doimo mas’uliyat bilan faoliyat ko’rsatadi va o’zining ezgu niyatiga yetadi. Ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammolarga duch keladi. Bu muammo insonda mas’uliyat hissa mavjudligidan dalolat beradi. Mas’uliyatni o’zgarlar va o’z vijdoni oldida javobgarligini sezmagani kishi hohlagan ishga kul urishi mumkin – uni o’z qilmishining oqibati qiziqitirmaydi. U faqat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir hatti – harakat, har bir qilmishining ibtido nuqtasidir. Shaxsda axloqiy tanlov erkinligini namoyon bo’ladi. U iroda erkinligi, o’z hatti-harakatlari irodasiga muvofiqlash erkinligidir

«Avesto» kitobida ham axloqning qonun – qoidalari ishlab chiqilgan. Unda insonni inson tomonidan o’ldirilishigina emas, balki it, ot kabi hayvonlarni jonsiz qilish, daraxt va o’simliklarni behuda payhon etish man qilinadi. Inson faqat ezgu uy, ezgu so’z, ezgu a’mol bilan yashashi lozimligi ta’kidlanadi.

Bibliyada Kobilni o’ldirgan Xobildan Tangri xun olmaydi va uni o’ldirmaslikni talab etadi. Buddxa ta’limoti jonlini jonsiz qilishni eng katta gunoh deb biladi. Injilda «O’z qavmdoshingni sev», «Odam o’ldirma» degan da’vatlar asosiy qoidalar sifatida namoyon bo’ladi. Qur’oni Karimda esa xun olishdan ko’ra tovon olmoq ma’qulligi aytiladi va musulmonlar o’zaro faqat go’zal munosabatlar qilish lozimligini ko’rsatiladi.

Demak, dastlabki axloqiy qonun – qoidalar muqaddas kitoblarda o’z aksini topgan bo’lib, zo’ravonlikka zo’ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan. Inson axloqiy hayotning asosi bo’lgan ana shu qonun – qoidalar hozir ham o’z ahamiyatini yo’hotgani yo’q. Odamlar ularni og’ir majburiyat deb bilmasdan, dil-dildan bajaradigan zamonning tezroq kelishi uchun tinmay harakat qilishlar axloqiy taraqqiyotdan dalolatdir. Zero, ana shu yo’lda komil inson g’oyasini kishilar ongi va qalbiga

singdirish asosiy muammo bo'lib kelgan. Komillik – mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy fazilatlarining mujmuidir. Komil inson va uning g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Komil inson – bu ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.

Insoniyat tarixida aholiqiy taraqqiyot bo'lgan va u davom etib kelmoqda. Inson doimo axloqiy qonun-qoidalarni hayotga tadbiiq etishga harakat qilgan, bir qancha qarshiliklarga ham duch kelgan. Insonning asosiy mohiyati o'zini va o'z jamiyatini taraqqiy ettirish bilan belgilanadi. Bu jarayonda axloq muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy tanlov orqali inson o'z oldiga quygan vazifalarni bajaradi.

4.3.Axloq tuzilmasi.

Axloqning o'ziga xos tuzilmasi, omillari, unsurlari mavjud. Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat bo'lib, bo'lar: axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy hatti-harakatlardir. Ana shu uch omilning tuzilmadagi o'rni, mavqei masalasida turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi axloqshunoslar axloqiy ong, ba'zilar axloqiy hissiyotning o'zini asosiy unsur deb talqin etadilar.

Bu uch unsur bir-biri bilan dialektik aloqadorlikdadir. Axloqiy hissiyot bo'lar ichida muhim rol o'ynaydi. Axloqiy hissiyot axloqiy anglash uchun material vazifasini bajaradi. Ba'zida bu jarayon munosabat tarzida namoyon bo'ladi.

Insonning axloqiy hayoti, uning axloqiy tajribalari, axloqiy faoliyatlari ana shu uch omil asosida shakllanadi. Axloqiy kodekslar, me'yorlar va tamoyillar ana shu uch omil asosida ro'yobga chiqadi va ularga asoslanadi.

Ba'zan bu uch omil o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Til bilan dil o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Ish bilan so'z birligi o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ladi.

Axloq eng avvalo, umuminsoniy an'anaviy hodisa bo'lib kelgan. Asosiy axloqiy qadriyatlar, mushtarak axloqiy tushunchalar, axloqiy tamoyil va me'yorlar barcha mintaqalar hamda millatlar uchun bir xil ma'no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik va bahillik singari fazilat hamda illatlar tom ma'noda umuminsoniy hodisadir.

Axloqda, umuminsoniylik jihatlaridan tashqari, mintaqaviy, milliylik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari, uning ko'rinishlar hulqiy hatti-harakatlar, odob va etikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Musulmon mintaqasida dasturxon ustida bosh kiyimsiz o'tirish beodoblik hisoblangan. Bo'lardan tashqari gigienik – ozodalik nuqtai nazaridan ham ahamiyati bor: ovqatlanish paytida rumolsiz yoki duppisiz erkak boshidan soch tolasi, qazg'oq, chang-gard taomga yoki dasturxonga tushishi mumkin. Nasroniy mintaqasida esa aksincha, dasturxon ustida bosh kiyimni yechmaslik Xudo in'om etgan taom va dasturxonga hurmatsizlik hisoblanadi. Yoki amirikalik yigit o'z stolida o'tirib, oyoqlarini kuldon va ichimlik ashyolari turgan stolchaga chalishtirib tashlab orom oladi va uning uchun bu tabiiy xol hisoblanadi.

O'zbek uchun stolga yoki xontaxtaga oyoq quyib o'tirish – o'ta odobsizlik hisoblanadi. Garb va Sharq mintaqalari odobida ayrim farqlar mavjud bo'lib, Garbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi kelib chiqqan. Garb yoshlari balogatga yetgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o'zining qarshi fikrlarini tuppa- to'g'ri, ota yo onasining yuziga tik qarab bayon qiladi va buni inson huquqlaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi.

Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan - to'g'ri qarshi chiqishni an'anaviy axloqiy qoidalarning oyoq osti qilinishi deb tushunadi, padari yoki volidasi ko'ziga qaramay muloyim, o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishini, ba'zan esa sukunat saqlashni afzal biladi. Ularga bo'yso'nishni burch sifatida olib qaraydi. Sharqona etiket, odobi qonun – qoidalarda insoniylik va mehr-oqibat tuyg'ulari mustahkam ildizga egadir.

4.4. Axloqning boshqa ma'naviy tuzilmalar bilan o'zaro aloqalari va birlashtiruvchilik xususiyati.

Axloq ijtimoiy ong shakllari bilan bevosita bog'liq va aloqadorlikdadir. Axloq din bilan aloqadorlikdadir. Din inson hayotining axloqiyligini taqozo etadi. Shu bois diniy – sha'riy tamoyillar va me'yorlar Hadisi Sharifdagi o'g'itlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog'liq. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Odam o'ldirish eng o'lkan axloqsizlik hisoblanadi. O'g'rilik, birovning haqini yeyish, munofiklik, aldash, yolg'on gapirish va boshqa turli illatlar ham diniy – shar'iy ham axloqiy nuqtai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e'zozlash, odamlarning bir-biriga ko'makdosh bo'lishi, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bo'lmasin, unga xushomad qilishdan tiyinish, faqat yaratgangagina sig'inish singari fazilatlar ayni paytda diniy taqvo, ham axloqiy talab tomonidan ma'qullangan hatti-harakatlardir.

Shu bois axloqni dindan butunlay mustaqil tarzda ajratib bo'lmaydi. Din insonni axloqiylashtirishning vositasidir.

Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o'z aksini topadi. Muayyan jamiyatda huquqiy qonun-qoidalar o'sha mintaqa xalqi tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xildir: axloq asosan tushuntirish, pand-o'g'itlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi.

Axloq, huquqqa nisbatan ancha keng qamrovlidir. Chunonchi, huquqiy qonunlar tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiiq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand-o'g'itlar, barcha tuzilmalar hamda turli yoshdagi kishilarga birdek taaluqli bo'ladi. Huquqiy me'yorlar aniq manzilni taqozo etsa, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyliigi bilan ajralib turadi. Axloqning siyosat bilan aloqasi nihoyatda qadimiy, ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjuddir. Siyosat davlat faoliyatida foydalaniladi va bu faoliyatning bosh yo'nalishini tashkil qiladi. Siyosiy jamiyat uchun kurashda, muayyan siyosiy tartibni va uning iqtisodiy negizlarini himoya qilishni asoslab berish va mustahkamlashda juda muhim qurol bo'lib xizmat qiladi.

Siyosat – iqtisodiyotning jamlashtirilgan ifodasidir, uning umumlashuvi va oxiriga yetishidir. Turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning iqtisodiy manfaatlari xuddi shu siyosatda tula va har tomonlama ifodalanadi. Axloqiy nuqtai-nazardan kishilarning siyosiy ongini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi: «Agar iqtisodiy usish, taraqqiyot, - deydi I. A. Karimov, - jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat – ma'rifat va siyosiy ong yetuklik uning ruhi, aqli va jonidir»¹.

Bugungi kunda buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun siyosiy yetuk, ma'rifatli, o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalash jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu jarayon faqat aqliy ongning raxnamoligida amalga oshiriladi, xolos.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqadorligini et bilan tirnoqning yaqinligiga o'xshatish mumkin. Har bir san'at asarlarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etiladi, insonparvarlik, haqiqatguylilik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi har bir badiiy asarning shox tomiri hisoblanadi.

Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi va Shirini, Shekspirning Romeo Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Demak, san'atning manbai – voqelikdir. San'at obektiv voqelikni aks ettirish shaklidir. San'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Axloqsiz san'atning shakllari o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshira olmaydi. Kino san'ati, tasviriy san'at, teatr san'ati kishilarda, yoshlarda axloqiy idealni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Axloq fan bilan ham aloqadorlikdadir. Ko'pgina ilimy qarashlar, nazariyalar insonni bevosita yoki bilvosita yuksak axloq egasi, donishmand va halol inson bo'lishga chaqiradi. Barcha fanlarning har biri o'z sohasida haqiqatni ayon bo'lishiga xizmat qiladi. Axloqning asosiy vazifasi esa insonlarni haqiqatga olib borish, uni komil inson qilib tarbiyalashdir.

¹ Qarang. Karimov. I. A. Istiqol va ma'naviyat. Toshkent, 1994, 59-bet

Har bir ilm-fanda erishilgan yutuqlar insoniyat jamiyati oldiga yangi-yangi axloqiy vazifalar va muammolar qo'yadi.

So'nggi paytlarda fan-texnika taraqqiyotining yuksak darajasi va ekologik buxronlarning yuzaga chiqishi sababli ekologik axloqshunoslik singari axloq olamining yangi yo'nalishlari yuzaga keldi: neosfera yoki boshqacha aytganda, texnosferada etosferaga – axloqiy muhitga utish zarurati insoniy jamiyati axloqiy madaniyati oldidagi eng dolzarb vazifa sifatida quyilmoqda: zero, bu vazifaning faqat axloqshunoslik doirasidagi muammo emasligini, keng qamrovli ekanini, butun Yer yuzini bundan keyin mavjud bo'lmish yoki bo'lmaslik muammosiga aylanganligini bugun yaqqol sezish mumkin.

Axloq bilan mafkura o'zaro aloqadorlikda bo'lib, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir majmua muayyan g'oyalar va qarashlar tizimidan iborat. Axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va ommalashtiradilar.

Har bir davlat va jamiyatda bir necha mafkura bo'lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri yetakchilik mavqeini egallaydi. Bu yetakchilik zinhor boshqa mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a'zolari ko'pchilik irodasini ifodalaydi. Uni shuning uchun milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fuqarolik jamiyatini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan O'zbekiston Respublikasida bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12 – moddasida shunday deb yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Milliy mafkuramiz yuksak axloqiylikka assolangan. U axloqiy printsiplarga amal qilib, jamiyatimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bo'lib, har bir fuqaroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi.

Axloq nafaqat markaziy hodisa, balki, boshqa ijtimoiy hodisalarni harakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. U ma'naviyat tizimida birlashtiruvchi xususiyatga egadir. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: «Aslini olganda, axloq ma'naviyatning o'zagi», dir.

Axloq ma'naviyat tizimidagi eng ta'sirchan, eng baquvvat xalqa, u siz odamzot ma'naviyatini tasavvur qilish mumkin emas.

Barcha ma'naviy hodislar insondan, shaxsdan axloqiylikni talab etadi. Chunki, axloq umumma'naviy ahamiyat kamollik, ma'naviy tizimda birlashtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan yagona universal – ijtimoiy – ma'naviy hodisadir.

Xulosa. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotining muayyan davrida zaruriyat asosida paydo bo'lgan ijtimoiy tasodifiyatdir. U insonlarni talab va ehtiyojlaridan kelib chiqdi. Zamon, davr o'tishi bilan axloqning tamoyillari, tushunchalari, qonun-qoidalari ham takomillashib bordi. Chunki, axloqning mazmunida ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov muhim rol o'ynaydi. Bu esa axloqiy tuzilmalarni hayotga tadbiiq qilishni talab qiladi. Axloq ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyat va uning shakllari axloqsiz vujudga kelmaydi. Axloq ma'naviyatning o'zagi hisoblanadi. Axloq singari ma'naviyat ham boshqa ong shakllari bilan o'zaro aloqadorlikdadir. Shuning uchun ma'naviyat taraqqiyotning poydevoridir.

Tayanch tushunchalar:

Mohiyat, erkinlik, Ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov, mas'uliyat, axloqiy taraqqiyot, axloq tuzilmasi, axloqiy ong (anglash), axloqiy hissiyot, axloqiy munosabatlar, maqsad va vosita, ma'naviyat, , axloq, huquq, san'at, fan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Erkinlik tushunchasini tushuntirib bering?
2. Ixtiyor erkinligi deganda nimani tushunasiz?
3. Axloq tuzilmasining omillari nimalardan iborat?
4. Axloqning ma'naviy tizimdagi o'ziga xos xususiyatlari?

Adabiyotlar:

1. Axloqshunoslik. A.Sher.Yangi asr avlodi. Toshkent. 2003. 87-125 – betlar.
2. Falsafa qomusiy lugʻat jamiyati. Toshkent. 2004 . 255-464- betlar.
3. Jamiyatni erkinlashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot masalalari. Toshkent. 2007. 4-14- betlar.
4. Maʼnaviyat millat nishoni. Toshkent. 2007.
5. Maʼnaviyat gulshani.Qarshi. 2001. 3-10- betlar.
6. Maʼnaviyat va yoshlar. G. Shodiev. Toshkent. 2008. 9-39- betlar.

5-Mavzu: Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari. Axloqiy tamoyilari, meʼyorlari.

Reja:

1. Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari.
2. Axloqiy tamoyillar, me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati
3. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob mummosi.
4. Shaxs axloqiy tarbiyasi.

5.1. Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari.

Axloqshunoslikdagi tushunchalar (kategoriya) ning shakllari xilma-xil bo'lib, mazmunida axloqshunoslik talab qiladigan jarayonlar ifoda etiladi. Kategoriya – yunoncha so'z bo'lib, ta'rif berish, fikr aytish ma'nolarni anglatadi.

Muhabbat va nafrat- axloqshunoslikda juft kategoriya (tushuncha) bo'lib hisoblanadi. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha bo'lib, barcha asosiy tushuncha va tamoyillarga ta'sir qiladi.

Muhabbat me'yorlar, an'analar, qonunlarga buysunmaydi. Lekin, yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga o'lgan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi.

Muhabbat – insonni tashqi va transtsendental olam bilan bog'laydigan, uni yolgizlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning obe'kti go'zallikdir. Insonning ona tabiatga, yoriga, ota-onasiga, Vataniga ... bo'lgan muhabbatni... Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zganio'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi.

Muhabbat inson axloqiy hayotining cho'qqisi, komillik belgisidir. Haqiqiy muhabbat g'oyalari yoshlar tomonida doimiy axloqiy ideal tarzida qabul qilanadi: Farxod va Shirin, Romeo va Juletta, Otabek va Kumush va hokazolar. Demak, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o'ziga xos ko'rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin.

Muhabbat-oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Muhabbatning ziddi-nafrat bo'lib, u ham muhabbat singari keng qamrovli tushuncha emas.

Nafratning aksi muhabbat tarzda namoyon bo'ladi, obe'ktidan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo qiladi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko'rinishdir. Nafrat g'azabdan keskin farq qiladi. U g'azabga o'xshab, o'z obe'ktini yo'hotishga intilmaydi, undan faqat yuz beradi. U muhabbatga zid holda noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli ko'zg'aladigan hissiyot deyish mumkin.

Ko'rinishidan nafrat kishida yoqimsiz taassurot o'ygotsa-da, ko'p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi mavjud bo'lib, u ijtimoiy hodisa emas, ko'p hollarda jinsiy munosabat bilan yonma-yon keladi. Muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi me'yordan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashkning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi. Ba'zi hollarda rashk fojiaga olib kelishi mumkin.

Ezgulik va yovuzlik -u inson faoliyatining muhim tomoni, asl mohiyatini anglatadi

Ezgulik – insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, u haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komilikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyatdir.

Ezgulik va yovuzlik keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy xususiyatga ega. Shu tufayli amaliyotda qaxramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichiga oladi. Masalan, insonparvarlik – odamzot qadri, erkinlik va qobiliyatlarini har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotning taqdim etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlardir. Bu jarayon insonni ezgulikka yetaqlaydi.

Ezgulik axloqiy ideal bilan bog'liqdir va inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. U odam bolasini ulug'lik va tubanligini ulchaydigan taroziga uxshaydi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kategoriyasiga uxshasada, ular o'rtasida farq bor. Ezgulik ijtimoiy xususiyatga ega, yaxshilik shaxsning odobiga, hulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisadir. Unda mardlik, ochiq ko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar mujassamlashgan. Biroq, u kaxramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Alisher Navoiy ezgulik bilan faoliyat ko'rsatdi. Uning asarlari yuzlab yillar mobaynida zavq – shavq ulashib, kishilarni komilikka chorladi. U ko'plab yaxshilik qildi, muxtoj odamlarga yordam berdi.

Ezgulik xech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har zamonda har qanday sharoitda ham yovuzlik yovuzlik bo'lib kolaveradi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Gitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobik Sho'rolar Ittifokining esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholash buning yorokin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik -juft kategoriya bo'lib, ular ham bir-biriga ziddir. Kishining butun ma'naviy hayoti, shu jumladan, axloqiy tushunchalar ham ijtimoiy hayot ta'sida o'zgaradi. Yaxshilik va yomonlik insonning tugilishi bilan birga vujudga kelmaydi. Yaxshilik va yomonlik o'zaro munosabatli, ayni vaktida kutbiy va bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir. Yaxshilik tushunchasida bir muncha ijobiy narsalar, yangi axloqiy idealga mos keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar jamlansa, yomonlik tushunchasida kishilarning idealiga, ular e'zozlaydigan narsalarga zid keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar baxtga erishishiga, kishilar orasidagi munosabatlarda, taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning usishiga tuskinlik qiladigan hamma narsalar haqidagi tasavvurlar ifodalanadi.

Yaxshilik deganda kishilarning mehnatsevarligi, halolligi, mardligi, insoniyligi, oliyanobligi, odamlarga, xalqqa, jamiyatga yetkazadigan nafi, mehr-muruvvati, muhabbati, kishilar og'irini yengil qilish kabi ijobiy hatti-harakatini ifodalovchi fazilatlar tushuniladi.

Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo'lib, u kishilarni dangasalik, tekinxo'rlik, zararkunandalik, zolimlik, mayxurlik, giyohvandlik, ig'vogarlik, g'iybatchilik, buzuqlik kabi salbiy hatti-harakatlarni ifodalaydi. Yaxshilik ezgulik, himmatlilikni anglatadi, yomonlik yovuzlikni anglatadi.

Inson hayotining barcha ijobiy tomonlari yaxshilik bilan bog'langan tushunchadir. Ijtimoiy taraqqiyot, kishilar o'rtasidagi bo'ladigan munosabatda insoniylikning o'sishiga mos keladigan tub insoniy muammolardan kundalik turmush tarzi va uning munosabatlari, hatti-harakatlari, ijobiy hulq-odobi kabilar yaxshilik bilan ifodalanadi. Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo'lib, u ham insonlar o'rtasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Adolat - qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholaydi. Adolatda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor, unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashadi. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdir o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bir joyda fayz-baraka, haqiqat qaror topadi.

Adolat kishilarning jamiyatdagi axloqiy o'zaro munosabatlarini mujassamlashtirib, taqdirlash va talab qilishning miqdoriy ulchovini beruvchi baholash kategoriyasi hisoblanadi va huquq bilan axloqni bog'laydi. Axloq tushunchasi huquq normalarining muhim ijtimoiy – axloqiy mezonlari sifatida maydonga chiqadi. Demak, adolat tushunchasi huquqiy ongdan ancha oldin paydo bo'lgan. U huquqiy munosabatlar sohasida katta ahamiyat kasb etadi. Axloqshunoslikning asosiy baho kategoriyasi bo'lgan adolat turli dalillar, iqtisodiy, siyosiy huquqiy hodisalarni baholashda namoyon bo'luvchi obektivlik, xolislik, haqqoniylik, insonparvarlik kabi alomatlarini zaruriy ravishda taqozo etadi va umuminsoniy axloqning muayyan elementlarini o'z ichiga oladi.

Prezident I. A. Karimov: «Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarni qamrab olmogi darkor, adolat va haqiqat g'oyasi faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bulmogi shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari mehnat va uy – joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi, kiyingi, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur», - deb ta'kidladi.

Demak, adolat bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining kelajagi buyuk davlatimizning tushunchasiga aylanib bormoqda.

Burch - kishilarning jamiyatga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatlarini ifodalaydi. Bu kishilarning oila, Vatan, millat, umuman jamiyat oldidagi majburiyati, mas'uliyati, sodiqligi, ongliligini ifodalovchi hatti-harakatlar majmuidir. Burch tushunchasi oilada yoshlikdan boshlanadi. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida burch tushunchasi, ya'ni burchiga sadoqat yoki hikmat yotadi. Agar inson o'z burchiga sadoqatli bo'lsa, u har bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi, agar inson o'z burchiga sodiq bo'lmasa, u kishiga xiyonat keltiradi.

Burch tushunchasi keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatgan: insoniylik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi, talabalik burchi, Vatant oldidagi burchi va xokazolar bo'lib, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy burch tushunchalari ham mavjud.

Demak, burch insonga mas'uliyat va majburiyat yuklaydi. 64-moddada bunday deyilgan: «Ota onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar». 66-moddada: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishiga majburlar», - deb ta'kidlanadi.

Vijdon - vijdonlilik va vijdotsizlik tushunchalari ijtimoiy taraqqiyotining muayyan davrida, ijtimoiy muhitning ta'sirida shakllanadi. Vijdon insonni o'z muayyan jamiyat axloq normalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholash va uni nazorat qilish, shuning bilan birga o'z hatti-harakatlariga bog'liq bo'lgan his-tuyg'u va kechinmalarini tahlil qilishdir. Inson o'z vijdoni oldida mas'uliyat his qilib yashaydi.

Vijdon tushunchasi ijobiy va salbiy kechinmalarni ifodalaydi. Masalan, inson quvonchi, u yoki bu iztirobdan qutulish, o'zini yengil tortishi, xijolatdan forig' tortish va yuzining yorug' bo'lishi vijdondagi ijobiy his tuyg'ularni aks ettirsa, uzr surash, tavba qilish, iztirob chekish, pushaymon, uyalish, xijolat tortish kabilar salbiy kechinma, his-tuyg'u, hatti-harakatlarni ifodalaydi.

Vijdon tushunchalari o'zining rivojlanishi tarixi davomida umuminsoniy ma'no elementlari bilan boyib boradi, unga ko'p jihatdan axloq adolat va odamgarchilikning oddiy normalari o'z aksini topadi.

Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba'zi asosiy tushunchalari singari baholash xususiyatiga ega, bu xech qachon obe'ktga kiritilmaydi, u sube'ktning hatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sube'kt o'zi uchun ichki obe'kt vazifasini utaydi.

Vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin o'lkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

. Yurtboshimiz I. Karimov vijdon kategoriyasining buyukligi, jamiyatdagi salohiyatini ta'kidlab: «Vijdon bilan iymon bilan, diyonat bilan o'ynashib bo'lmaydi». Vijdonli odamlar bilan qo'yilgan maqsadga erishiladi, huquqiy davlat, demoqratik fuqarolik jamiyati kuriladi.

Or-nomus (sha'n)- tushunchasi ham axloqning boshqa tushunchalari singari shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. "Or-nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan joy olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi. Shuning uchun or-nomus, tushunchasi kishilarning ijtimoiy hayotdagi o'z qimmatining anglashi hamda bu qimmatni jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Nomus tushunchasi shaxsiy qadr-qimmatni anglashni o'z ichiga olar ekan, ular bir-biri bilan aloqada va ko'p jihatdan bir-biriga uxshaydi. Biroq or-nomus, qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega emas. Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari insoning o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini avlodlar va ajdodlar sha'niga dog tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

Nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovga, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Masalan, oriyatli odam deganda, eng avvalo o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam – o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketadigan surbetnamo kishilardir.

Nomusning toshi ogir, ijtimoiy xususiyatga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin. Odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat, jamoa nomusi deb kurashadilar. Nomus obru tushunchasi bilan bog'lanib ketadi.

Demak, o'zini o'zi hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarni hurmat-izzatini yo'hotmaslikdan o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Or-nomus tushunchalari inson faoliyati bilan bog'liq jarayon bo'lib, inson oldida yuksak mas'uliyat yuklaydi. Kishilik tarixidan ma'lumki, inson orli, nomusli bo'lishni maqsad qilib qo'yadi va bu borada faoliyat ko'rsatadi. «Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq, - deb ta'kidlaydi Prezient I. Karimov, - abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatini o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning kuchli omili bo'lib xizmat qiladi».

Ideal, hayotning ma'nosi- kabi tushunchalari o'z yechimini talab qilish bilan birga muammolik xususiyati bilan ajralib turadi.

Ideal tushunchasi baholash xususiyatiga ega bo'lmasdan, balki u qiyoslashga asoslanadi. Bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Hayotda ideal narsaning bo'lishi mumkin emas. Uning mavjudlik sharti o'tgan sharti insonning hatti-harakati bilan bog'liq bo'ladi. Ideallik namuna bilan birga tarixiylikni talab etadi. Axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo'ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda idellashtiriladi. Unda inson siymosi yorqin misol bo'la oladi.

Odam ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, uni tanqid qiladi. U inson hayotidan eng ulug' axloqiy talabdirki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Hayotda bunga tulik erishib bo'lmaydi. Inson ana shu komillikni o'ziga namuna qilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy – hayotiy komillikni kulga kiritadi. Dunyoviy va diniy ideal mazmuni hamda mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Musulmonlar uchun ideal Muhammad alayhissalom nasroniyalar uchun xazrati Iso, yaxudiyalar uchun Xazrati Muso ideal hisoblanadi. Ijtimoiy axloqiy ideal esa doimiy bo'lmaydi. U o'zgarib turadi. Masalan: Amir Temur o'z davrining ideali bo'lgan. Hozir esa «Kuch adolatda!» degan shiorini hayotning ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining na'munaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy - axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin.

Hayotning ma'nosi- yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish ularni aynanlashtirish mumkin emas. Hayotning ma'nosi deganda maqsadga nisbatan keng qamrovli tushuncha e'tiborga olinadi, o'z ichida o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, u muayyan maqsadlar tizimini tashkil qiladi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin.

Ba'zilar o'z hayot ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kin-sochin yashashda deb tushunadi. Harom-harishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldida hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi.

Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni hayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Hayotning ma'nosi – bu hayotning butun bir bosh yo'lidirki, bunda konkret, aniq maqsadlarni belgilab beradigan yo'nalishlar e'tiborga olinadi.

Inson o'z oldiga maqsad qo'yadi. Bu maqsadlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ularni insonning turmush sharoitlari taqozo qiladi. shunday ekan, hayotning ma'nosi-uning inson ongidan qat'iy nazar mavjud bo'la oladigan obektiv mazmunidir.

Baxt- bu o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushunish va shu ma'nodagi umri mobaynida qoniqish hosil qilishdan iborat jarayondir.

Abu Nosir Forobiy «Baxt – bu har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», - deb ta'kidlagan. Haqiqatdan ham baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Baxt tushunchasini rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan, u jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni muvofiq rivishda yangi mazmun bilan boyib boradi, umuminsoniy elementlarni saqlab qoladi. Baxtning umuminsoniy elementi shaxsiy hayot tarzini, o'zining mavjudligini idroq etadigan, normal yashash sharoitini ta'minlashdan o'z mavjudligini foydalanishga ishonchdan insonning muhabbat, do'stlik, ota-onalik zavq-shavqini anglashdan iborat.

Baxt eng avvalo ma'naviy extiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin – ketin erisha borish, konikish jarayoni, bir umr to'xtamaydi, doimo lazzat va zavkini o'z ichiga oladi.

Baxt orzu kabi idealning hissiy extiros shakli sifatida ko'zga tashlanadi, shaxs intilishini ro'yobini anglatadi. Baxt omad bilan bog'liqdir.

Omad- tasodif, baxt – zaruriyat, omad istisnoli, baxt-qonuniy hodisa. Omad – shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi. Baxt esa inson nimaga erishmogi lozim, savoliga umri mobaynidagi amaliy javobidir. Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega. Ya'ni ideal kabi uning ham tabiati o'zgaruvchan.

Har bir kishi o'z baxtini mehnati, tinch-totuv yashashi, kasb-kori, ilm-fan va texnika fanlarini egallashi bilan topadi. Buyuk shoirimiz Gafur Gulom: Taqdirni qo'l bilan yaratur odam, goyibdan kelajak baxt bir afsona, - deb yozgan edi.

Xulosa. Axloqshunoslikning o'ziga xos mezoniylar tushunchalari bo'lib, ular dialektik aloqadorlikni taqozo etadi. Bu mezoniylar tushunchalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlaridan paydo bo'lib, inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir.

Axloqning mezoniylar tushunchalari ma'naviyat va ma'rifatni yuksakka ko'tarishda, kishilarni komillik tomon yetaqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir talaba yoshdan axloqshunoslikning mezoniylar tushunchalarini chuqur o'rganish hamda uni hayotga tadbiiq qilish talab etiladi.

5.2. Axloqiy tamoyillar, me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati.

Asosiy mezon kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy ong shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson hatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarining eng qadimiy va eng muhimlaridan biri –insonparvarlik.U- insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Obro'pa Uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rtaga tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi <<namlulu>> so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi- erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero,erksiz inson- asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat- mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu- vatanparvarlik. U insonning o'z Vatanga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng-u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatantoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi hatti-harakatlardir.

Vatan himoyasi, bu inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarida ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'u hissini tuyush, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab-avylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o'rgatish, vatanparvarlik-yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu-millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurarish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'zmillatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar-milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'zi millati bilan farxlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju xilatekim, men tomosha qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i shirdog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan.

Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining-millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlari Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov shunday ta'rifayli: "Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor".

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: "Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizga madadkor bo'lishi zarur".

Asl millatparvar ana shunday bo'lishi kerak. Asl millatparvar inonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy-huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda ahloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Chunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki paytlarda o'tish davriga xos bo'lgan- fidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko'rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan "Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!" degan so'zlarini axloqiy shoir qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg'or qismi tobora ko'payib bormoqda. Ana shu ko'payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli-shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushunch ma'nsida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keladi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hatotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot bilan bog'liq. Shu bois uni inson paydo bo'ganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk almon faylasufi, "Frankfurt maktabi" ning namoyondasi Teodor Adarno Ikkinchi jahon urushidagi genosiddan so'ng, ziyolilik – axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ziyolilik axloqiy tushuncha – tamoyil sifatida murakkab va ko'pyoqlamalik tabiatiga ega. Ba'zilar ziyolilik deganda oliy ma'lumotli kishiga xos bo'lgan fazilatni tushunadilar. Vaholanki, ziyolilik tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma'nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer – dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko'rishi va atrofdegilar tomonidan: "Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odam – da", degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo'lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidagi qat'iy, nazar ham bilim, ham fahm – farosat, ham oliy maqsadlar egasi tushuniladi. Shunday qilib, ziyolilik sosida insonning ma'naviy – ma'rifiy yuksagligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan birliglanadigan hatti – harakatlar yotadi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti – harakatlarining, faolyatlarining ko'pligi va xilma – xilligi biln ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti – harakatlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan qismidir.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o'z – o'zini namoyish etishga, o'zligini ro'yobga chiqarishga, o'zgalalar bilan munosabat o'rnatishga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U

insondagi halollikni, intizomni, ishtiyiq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan subyektiv tarzda ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma'naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya'ni unda moddiylik va ma'naviylik teng ishtirok etadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxning o'ziga va atrofdagilarga individual munosabatga aylandi, "mohiyatan besh qo'l barobar bo'sin" degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa yangi jamiyatimiz kishisining, jahoniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch – totuv yashashga bo'lgan munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroqlik gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emar, balki faol xatti – harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoiy insonlardir. Ularning ana shu fidoiylarcha xatti – harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga qaytarilmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy – madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlarning orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Jumardlik. Jumardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovrupada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U-kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, "o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutuib" yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu –oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy – me'yori talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jumardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jumardlik mohiyatan "oddiy omadlik qobig'idan chiqib bilish", ilohiylik sifatlariga esa bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshirish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, insofilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik kabi me'yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik va rostgo'ylik. Avval shuni aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida-qaysi taom harom-u, qaysisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy-dunyoviy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. Halollik, rostgo'ylik- vijdon tushunchasi bilan bo'g'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir.

Prezidentimiz Islom Karimov nutqlaridan birini "Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin" deb, boshqa bir suhbatini esa "Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin" deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgo'y, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo'lgan fuqarolar jamiyatini qurish- faqat axloqiy muammo emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy- siyosiy yangilanishdir.

Insofilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insofilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; "o'zga" ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarimlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatgaintilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni toxtata olishi kuchli irodani talab qiladi.

Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, "yetti o'lchab bir kesish" tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

5.3. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob mummosi.

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalaridan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shxsnig o'zgalarga bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Muomala odobi. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri- muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari" asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglash bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana bir "ko'zgusi", bu- insoniy qarash, nigoh, so'zsiz- noverbal harakatlar. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uningqay sabablaridandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo'l siltab ketish- muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o'z shogirdining hatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va hatti-harakati bilan: "Obbo shovvoz -ey, sal shoshilibsanda, ha, mayli, zarari yo'q, shunaqasi ham bo'ladi", degan ma'noni anglatga, ikkinchi ustaning qarashidan: "Yana ishni rasvo qilibsana-ku, padarla'nat, qachon odam bo'lasan!", degan so'zlarni o'qish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi- shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sabali yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda oya-onaning, mahalla-ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallahsdan boshlanadi.

Etiket. Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, estetik muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan hatti- harakatini taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosida qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va hokozo. Etiketga roiya qilishning mumtoz namunasi biz tez-tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Prezidentimiz Islom Karimovga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarini eslang. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o'rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo'q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o'ng qo'lda ushlab zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi- uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusga aylantirilgan, qat'iyalashtirilgan muomala odobi deyiş ham mumkin.

Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shningiz uchraydi. Siz ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, so'ng sharqona etiketga rioya qilib uni: "Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir xangomalashamiz", deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo'q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o'ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket- mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa ham na chora- munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib- qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Kasbiy odob. Axloqiy madaniyat kasbiy odobga ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch ma'suliyatini qay darajada his etishlariga, hallollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum.

Bir qancha kasbiy odob turlari borki, bular muallimlik odobi, huquq tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobi haqida qytadigan bo'lsak Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to'ralarcha qarashi odobsizlikka kirsas, uning shaxsiy boylik orttirishi yulida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. ba'zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi hamana shu shundan.

5.4. Shaxs axloqiy tarbiyasi.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarini anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarini barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri-qanday yashamoq kerak, ikkinchisi –nima qilmog’-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko’rinishidir.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko’p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To’g’ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihotda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylikbelgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne’mat. Shu ma’naviy ne’mat-asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo’lar edi.

Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo’llaridan biri. Uning vositalari ko’p. Ularning bir qismi an’anaviy tarbiya vositalari bo’lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo’lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiya bilan o’yinchoqlar va o’yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo’llaniladi; bunda bola qizg’anchilik, g’irromlik qilmaslikka halol bo’lishga o’yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo’g’irchoq teatri, kino san’ati katta rol o’ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi –san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo’lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko’rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo’ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo’lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo’lgan yo’li, bu –namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo’lishi kerak. Maktabda va oliy o’quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to “mayda-chuyda” xatti –harakatlarigacha o’z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi halollik, rostguylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniyaning keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko’rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag’ishlangan muntazam ko’rsatuvlar ham berib boriladi. O’zbek tilidagi “Otalar so’zi- aqlning ko’zi”, “Rivoyat”, “Oqshom ertaklari” singari ko’rsatuvlar bunga misol bo’la oladi. Shu bois televideniye hech qachon yengiltaklikni targ’ib etuvchi qo’shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan “o’ldir-o’ldir”lardan iborat videofilmlar korxonasi bo’lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma’naviy va jismoniy tarbiya bilan qo’shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O’shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Tayanch tushunchalar:

Axloqiy tamoyil, mezon, insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, ziyolilik, mehnatsevarlik, tinchparvarlik, halollik, insoflilik, xushfe’llik, shirinsuhanlik, kamtarinlik, bosiqlik, muomala odobi, kasbiy odob, axloqiy tarbiya.

Takrorlash uchun savollar:

1. Axloqiy tamoyil deganda nimani tushunasiz?
2. Insonparvarlik, erkparvarlik haqida tushuncha bering.

3. Mehnatsevarlik, halollik deganda nimani tushunasiz?
4. Shirinsuxanlik, kamtarinlik me'yorlarini izohlab bering.
5. Shaxsni tarbiyalash yo'llari qanday amalga oshilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. Toshkent. O'zbekiston, 1994.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Toshkent. 2004.-99b, -290 b, -438 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. 1993.
4. A. Sher. Axloqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T. "O'AJBNT". Markazi, 2000.
5. Slovar' po etiki. Moskva. Politizdat, 1989, -62, -81, -102, -222 b.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. O'zbekiston, 2000, 21-34 b.
7. A. Sher, Axloqshunoslik. Toshkent, 2003.- 215, -230,-235,-239,-243,-248, betlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y.
2. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, «O'zbekiston», 1992.
3. Karimov. I. A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «Ukituvchi», 1994.

4. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bulsin. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent, «O'zbekiston», 1995 y.
6. Karimov. I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, iqtisod, mafkura. Toshkent, «O'zbekiston», 1995 yil.
7. Karimov I.A Buyuk maqsad yo'ldan ogishmaylik. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
9. Karimov. I. A. Bunyodkorlik yo'ldan. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
10. Karimov. I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y.
11. Karimov. I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. Toshkent, O'zbekiston», 1998.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
13. Karimov I.A. Donishmand xalqimning mustahkam irodasigi ishonaman. «Fidokor» gazetasi. 2000 y, 8-iyun.
14. Karimov I. A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat kilsin». «Tafakkur», 1998 y.
15. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. Toshkent, «O'zbekiton», 2000 y.
16. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 y.
17. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. Toshkent, «O'zbekiston», 2005 y.
18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. Toshkent, «O'zbekiston», 2005 y.
19. Yangi hayotni eskicha kurib bo'lmaydi. 2005 yil 7 fevralda Prezident Islom Karimov Oksaroy qarorgoxida Vazirlar Maxkamasining yangi tarkibi bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqi. «Xalq so'zi», 2005 yil 17 fevral.
20. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent «SHaro'», 1997.
21. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
22. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 y.
23. O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi Qonuni. (Yangi taxriri). Toshkent, «Adolat», 1998 y.
24. O'zbekiston Respublikasining «Oila» kodeksi. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y.
25. Abdullo Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axok. Toshkent, «Ukituvchi», 1996 y.
26. Axloq odobga oid Hadislar namunasi. Toshkent, «Fan», 1990 y.
27. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000 y.
28. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Ukuv kullanma. Toshkent, «Yangi asr avlodi» markazi, 2003 y.
29. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. Ukuv kullanma. Toshket, «SHaro'», 2002 yil.
30. Jumaboev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. Toshkent, «O'zbekiston», 1980 y.
31. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. Toshkent, 1998 y.
32. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. Toshkent, «Yozuvchi», 1996 y.
33. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. Toshkent, 2001 y.
34. Maxmudov Tilab. Mustaqillik va ma'naviyat. Toshkent, «SHaro'», 2001 y.
35. Maxkamov Ulfat. Axloq – odobga saboklari. Toshkent, «Fan», 1994 y.
36. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, 2001.
37. Mustaqillik izoxli ommabop lugat. Toshkent, «SHaro'», 1998 y.
38. Odob bustoni va axloq gulistoni. Toshkent, 1994 y.
39. Ortiqov A. Etika asoslari kursidan ma'ruza matni. Ukuv kullanma. Toshkent, 1999 y.
40. Osnov filosofii. Uchebник. Toshkent, 2004 y.
41. Slovar po etike. Moskva, Poliizdat, 1998 y.
42. Sulaymonov A. Sharo' va garb. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 y.
43. Safarov O. Maxmudov M. Oila ma'naviyati. Toshkent, «Ma'naviyat», 1998 y.
44. Usmonov Raximjon. Saodatnoma. Tanlangan asarlar. Toshkent, «Ukituvchi», 1995 y.

45. O'zbekiston Respublikasi Entsiklopediyasi. Toshkent, Qomuslar Bosh taxiriyati. 1997 y.
46. Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent, 1993 y.
47. Fitrat Oila. Toshkent, «Ma'naviyat», 1998 y.
48. Falsafa. Ukuv kullanma. E.Yu.Yusupovning umumiy taxiri ostida. Toshkent, «SHaro'», 1999 yyu
49. Xayrullaev M. O'rta Osiyo ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent, «Fan», 1994 y.
50. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharo' mutafakkirlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1991 y.
51. 53.Xo'jamurodov I. «Avesto» da ma'naviyat marosimlari. «Mulokot», 1996 y, 1-son.
52. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. Toshkent, «Universitet», 1998 y.
53. Yuldashev S. A. Antik falsafa. Kullanma. Toshkent, 1999 y.
54. Yuldashev S, Usmonov M, Karimov R. Kobulniyozova G. Ruzmatova R. yangi va eng yangi davr Garbiy Yevropa falsafasi. (XVIII-XX asrlar). Ukuv kullanma. Toshkent, «SHaro'», 2002 y.
55. Garb Falsafasi. O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent. 2004.
56. Monten M.Opiti. V 3 kn.-M., 1979.
57. Garb falsafasi. Toshkent. 2004.
58. I.Saifnazarov, B.Qosimov, A Muxtorov, G.Nikitichenko. Fanning falsafiy masalalari. T. 2007.
59. Axloqshunoslik. A.Sher.Yangi asr avlodi. Toshkent. 2003.
60. S.Yo'ldoshev, M.Usmonov, R.Karimov, G.Qobulniyozova, G.Ro'zmatova.Yangi va eng yangi davr falsafasi. 2002.
61. Jamiyatni erkinlashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot masalalari. Toshkent. 2007. 4-14- betlar.
62. Ma'naviyat millat nishoni. Toshkent. 2007.
63. Ma'naviyat gulshani.Qarshi. 2001.
64. Ma'naviyat va yoshlar. G. Shodiev. Toshkent. 2008.

Tayanch iboralarining izohli lo'g'ati:

Axloq – arabcha hulq so'zining ko'pchilik, lotincha «mores» so'zidan olingan bo'lib, odob, atvor, fe'l degan ma'nolarni anglatadi. Moral ruscha so'z bo'lib, axloq degan ma'noni bildiradi.

Axloqshunoslik – axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilik jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadigan fan.

Biosfera - yunoncha so'z bo'lib, o'zbekcha «hayot shari» degan ma'noni anglatadi.

Biologik axloqshunoslik – tabobat muammosi biologik muammoga aylanishi, sun'iy yurak, sun'iy buyrakni kuyilishi.

Determinizm – (lat.determinare-belgimoq) – barcha hodisalarning umumiy, qonuniyatli aloqadorligi, sababli o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'limot.

Ideal - (yunoncha «idea» tarz, obraz, tushunchalar, birma-bir narsada namuna, kamolot, ayrim kishilarning, guruhlarning intilishi va hatti-harakatini belgilaydigan oliy maqsad).

Imon - (arab- ishonch, e'tikod) – islom dinida uning aqidalariga – Olloxga, Muhammadga va ilohiy hisoblangan kitoblarga, taqdirga, oxiratga ishonish.

Indeterminizm – (lat - inkor) – hodisalar o'rtasida biroq bir aloqa borligini inkor etadi. Ularga olamda hech qanday tartib yo'q va unda (boshboshdoklik) hukm suradi. Bunda inson o'z xoxishiga harakat qiladi, uning harakatlari aslo hech bir sababga bog'liq emas, degan mantiqiy xulosa chiqaradi.

Kategoriyalar - (yunoncha – ta'rif berish, fikr aytish) – ob'ektiv reallikdan hodisalarning asosiy xususiyatlari va qonuniyatlari aks ettiradilar va davrning ilmiy-nazariy tafakkurini harakterini belgilab beradigan umumiy tushunchalardir.

Monizm – (yunoncha monos – bir, yagona) falsafiy printsiptir bo'lib, bu printsiptga ko'ra butun mavjudot o'z negizi bilan yagondir, bir manbaga egadir.

Mafkura – arabcha – nuqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui.

Ma'naviyat – arabcha – ma'nolar majmui.

Ma'rifat – arabcha – «arafa», «bilmoq» so'zi.

Mentalitet – (lotincha «mens»-aql, idroq) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning xat qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

Neosfera – yunoncha – yerning «aqli qobig'i» .

Noverbal harakatlar – so'zsiz harakatlar ma'nosini anglatadi.

Odob – arabcha «adab» so'zining ko'pligi bo'lib – hulq, atvor, yurish-turish madaniyatining tashqi va ichki jihatlari ifodalaydigan tushuncha.

Patristika – «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan bo'lib, Garbda yepiskoplarni hurmat bilan ataganlar.

Ratsionalizm - (lat. ratio – aql, farosat) – aqlga, farosatga asoslangan fikrlash ma'nosini anglatadi.

Sxolastika – yunoncha «shkola» dan olingan bo'lib, «ukish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi.

Sensualizm – (lat. sensus – sezgi, his) bilish nazariyasida bir yo'nalish bo'lib, u sezilarli bilimlarning birdan-bir manbai qaraydi.

MUNDARIJA

So'z boshi	4
1-Mavzu: Etika (axloqshunoslik) fanining tadqiqot doirasi, maqsad va vazifalari	5
.....	
1. Axloqshunoslik faning predmeti, tadqiqot doirasi uning asosiy vazifalari	5
2. Axloqshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.	7
3. Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va ahamiyati	9
4. Qadimgi Sharqda dastlabki axloqiy ta'limot. «Avesto» - qadimgi dunyoning axloqiy ta'limoti	10
2-Mavzu: Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari.	13
1. Qadimgi Hindiston va Xitoyda, Yunoniston va Rimda axloqiy ta'limotlar	13
2. O'rta asrlar musulmon Sharqi axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar va ta'limotlar.	15
3. Temur va temuriylar davri axloqshunosligi.	16
4. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarning axloqiy qarashlari.	18
3-Mavzu: Ovro'pa va hozirgi zamon axloqshunosligi.	20
1. O'rta asrlar va Uyg'onish davrida Ovro'pa mamlakatlarida vujudga kelgan axloqiy ta'limotlar.	20
2. Yangi davr axloqshunosligining tarixiy xususiyatlari.....	21
3. Olmon va rus mumtoz axloqshunosligining vujudga kelishi.	22
4. Eng yangi davr axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar.	25
4-Mavzu: Axloq va uning kelib chiqishida ixtiyor erkinligining ahamiyati. Axloq tuzilmasi . Axloqning ma'naviyat tizimidagi o'rni.	29
1. Axloqning kelib chiqishi va mohiyati.	29
2. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari	30
3. Axloq tuzilmasi	31
4. Axloqning boshqa ma'naviy tuzilmalar bilan o'zaro aloqalari va birlashtiruvchilik xususiyati.	32
5-Mavzu: Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari. Axloqiy tamoyilari, me'yorlari.	35
1. Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari.	35
2. Axloqiy tamoyillar, me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati	39
3. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob mummosi.	42
4. Shaxs axloqiy tarbiyasi	44
Adabiyotlar ro'yxati	46-
	47
Tayanch iboralarning izohli lug'ati	48